


O.Y. BEKTOROV

FUTBOL NAZARIYASI VA USLUBIYATI

(ZAMONAVIY FUTBOLDA TAKTIKA VA
STRATEGIYA)





O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SPORT VAZIRLIGI
O'ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT
UNIVERSITETI

O.Y. BEKTOROV

FUTBOL NAZARIYASI VA USLUBIYATI

(ZAMONAVIY FUTBOLDA TAKTIKA VA STRATEGIYA)

O'quv qo'llanma

61010300-Sport faoliyati (faoliyat turlari bo'yicha)

TOSHKENT

"MAKON SAVDO PRINT" -2024

UO'K 796.332.015(075.8)

KBK 75.578я73

B 52

O.Y. Bektorov **Futbol nazariyasi va uslubiyati (Zamonaviy futbolda taktika va strategiya)** [O'quv qo'llanma]. -T.-“MAKON SAVDO PRINT” 2024 - 109 bet.

Taqrizchilar:

Artiqov A.A.

- pedagogic fanlari bo' yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismagilov D. K

- pedagogic fanlari bo' yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Annotation

O`quv qo'llanma Ozbekiston davlat jismoniy tarbiya universiteti uchun “Futbol nazariyasi va uslubiyati” fani dasturi asosida tayyorlangan. Yosh futbolchilarning o`yin taktikasini oshirish hamda mustaxkamlash uchun mashg`ulotlarda zamonaviy vosita va usullardan foydalanish muhim axamiyat kasb etadi. Vosita va usullarni qo'llay bilish yosh futbolchilarning taktik bilimlarni rivojlanishga ularni maydonidagi umumiy faoliyati yaxshilanishiga olib keladi. O`quv q`ollanma 61010300-Sport faoliyati (faoliyatlari turlari bo`yicha) talabalari uchun yaratilgan.

Аннотация

Учебное пособие подготовлено для Узбекского государственного университета физической культуры и спорта на основе предметной программы “Теория и методика футбол”. Особое место в процессе подготовки юных футболистов должно быть отведено воспитанию тактической грамотности. Владение тактикой наряду с совершенной техникой создает предпосылки для достижения высоких результатов, соревновательная деятельность, технико-тактическая действия, позиция игроков, удары по воротам. Учебное пособие предназначена для студентов 61010300-Спортивная деятельность (по видам деятельности).

Annotation

The manual has been prepared for Uzbek State University. The use of modern tools and methods in training is important to improve and strengthen the tactics of young players. The ability to apply tools and techniques leads young players to increase their tactical knowledge and improve their overall performance on the field. Key words: Competitive activity, technical-tactical actions, cheating the opponent, placement of players, a shot on goal. Texbook for students 61010300-Sport activities

UO'K 796.332.015(075.8)

KBK 75.578я73

ISBN 978-9910-766-87-9

© “MAKON SAVDO PRINT”, 2024

© O.Y. Bektorov.2024

Kirish

Dunyoda futbol o‘yining sur’ati futbolchilarning taktik tayyorgarlik darajasini doimiy o‘sib borishi bilan bog‘liq bo‘lib shu orqali maydondagi harakatlar ko‘lami jadal o‘sib bormoqda. Ushbu omil futbolchilarning taktik tayyorgarligiga ham yuqori talablarini qo‘ymoqda. O‘yin shiddatining oshib borishi futbolchilarning ham taktik tayyorgarlik darajasini oshirish va ularning o‘quv mashg‘ulotlari sifatini yaxshilash talabini keltirib chiqarmoqda. Futbolchilar o‘yin epizodlarida to‘g‘ri joy tanlashi vaziyatlarni ketma-ketligida yuzaga keltiradigan jarayonlarni to‘g‘ri baholay olishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Turli toifa futbolchilarining taktik tayyorgarligini o‘rganish va tahlil qilish bo‘yicha ko‘plab tajribalar to‘plangan bo‘lib ularning maydondagi taktik fikrlashlari, o‘yin vaziyatlariga tezkorlik va aniqlik bilan qaror qabul qilish sifatlarini rivojlantirish muammolari naqadar murakkabligidan dalolat beradi.

O‘tkazilib kelingan jahon championatlarida ko‘plab terma jamoalar taktika borasida futbolga yangi usullarni olib kelishgan. Braziliya, Germaniya, Italiya, Argentina, Gollandiya terma jamoalari bir necha bor o‘zlarining taktik o‘yinlari bilan jahon futbolida yuksak natijalarga erishganlar. Bunday taktik o‘yinlarni boshqa yurt terma jamoalari va futbol klublari o‘zlashtirib olishgan.

2018-yilda o‘tkazilgan jahon championatida Ispaniya, Urugvay, Gollandiya, Germaniya terma jamoa futbolchilari taktik o‘yin uslublari bilan katta g‘alabalarni qo‘lga kirtishdi.

Futbol o‘yining taraqqiy etishi, o‘yinchilarning joylashish vazifalarni o‘zgarishi bilan o‘yin uslubini takomillanishiga, rivojlanishiga olib keldi. Bu esa taktik o‘yinlarning o‘zgarishlariga, futbol o‘yinini tezlashishiga sabab bo‘ldi.

Qanday taktika tanlash kerak, yoki bo‘lmasa jamoa oldida turgan vazifalarga, kuchlar nisbati va o‘yinchilarning o‘zaro kurashuvchi guruxlarga, maydonning ahvoliga, iqlim sharoitiga va boshqa sabablarga bog‘liq. To‘g‘ri tanlangan taktik rejalar xar bir jamoaning o‘yinda samarali xarakatlarni ishonchli bajarishiga,

raqiblarni xato qilishiga psixolgik tarzda ishonchsiz o‘yinashlariga olib keladi. Bunday o‘yin kuchli va kuchsiz jamolar o‘yinida, kuchsiz jamoaning g‘alaba qozonganida yaqqol ko‘rinadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-martdagи PF-5368-son “Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2019-yil 4-dekabrdagi “O‘zbekistonda futbolni rivojlantirishning mutlaqo yangi bosqichga olib chiqish chora tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 24-yanvardagi PF-5924-son “O‘zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari, 2018-yil 16-martdagи PQ-3610-sonli “Futbolni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari o‘g‘risida”gi Qarori hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me’yoriy huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu o‘quv qo‘llanma muhim darajada xizmat qiladi.

I BOB.TAKTIK O'YINLAR EVOLYUTSIYASI

1.1 Futbolda taktik usullarning ahamiyati

Taktik deganda o'yinchilarning raqib ustidan g'alaba qozonishiga qaratilgan individual va jamoaviy harakatlarni tashkil qilishga, ya'ni jamoa futbolchilarining muayyan rejaga binoan aynan, shu konkret raqib bilan muvaffaqiyatali kurash olib borishga imkon beradigan birgalikdagi harakatlarni tushunish kerak.

Taktikadagi asosiy vazifa hujum va himoya harakatlarining maqsadga erishtira oladigan eng qulay vosita, usul va formalarni belgilashdan iboratdir.

Qanday taktika tanlash har bir alohida holda jamoa oldida turgan vazifalarga, kuchlar nisbati va o'yinchilarning o'zaro kurashuvchi guruhlarga, maydonning ahvoliga, iqlim sharoitiga va boshqa sabablarga bog'liq. Futbolda o'yinda ko'p martalab hujumdan himoyaga va himoyadan, hujumga o'tishdan iborat bo'lgani uchun ham, tabiiyki har qaysi jamoaning hujum va himoya harakatlarini uyushgan bo'lishi kerak. Taktika uchrashuv vaqtida butun o'yin faoliyatining asosiy mazmuni hisoblanadi.

Raqibga tanlangan qarshi kurash taktikasi muvaffaqiyat qozonishga yordam beradi, noto'g'ri yoki uchrashuv mobaynida as qotmagan taktika esa odatda mag'lubiyatga olib keladi. Raqiblarni neytrallash vazifalarini to'g'ri hal qila bilish va hujumdagi o'z imkoniyatlaridan muvaffaqiyatli foydalana olish umuman jamoaning ham, uning alohida o'yinchilarining ham taktik yetukligini ko'rsatadi. Hujum va himoyada hamma futbolchilarining harakatlari yaxshi o'zlashtirilgan hamda, faol bo'lgandagina jamoa g'alabaga erisha oladi.

Murabbiy o'yining taktik rejasini qanday qilib tuzgan bo'lmasin, bu reja alohida futbolchilarining harakatlari bilan amalga oshiriladi. Ana shuning uchun ham individual taktik kamolotga erishmay turib ham, jamoaning o'yini yaxshi, aniq harakatlar qilishni xayolga ham keltirib bo'lmaydi.

Futbol o‘yinida taktika bilan texnika bir-biriga chirmashib ketgan bo‘ladi. To‘pni kimga va qanday uzatishni, raqibni dog‘da qoldirish uchun aylanib o‘tish kerakmi, darvozaga qaysi paytda zarba berish kerakligini hal qila olgan o‘yinchi tafakkuridan foydalanadi. O‘yinchi maydondagi harakatni amalga oshirayotganda u esa texnik mahoratni ishga soladi. Demak, texnika o‘yinchining taktik rejalarini amalga oshirish vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

Kuchi teng jamoalar uchrashuvdagagi g‘alabaga ko‘pincha mag‘lub bo‘lganlarida iroda kamlik qilgani yoki jismoniy va texnik tayyorgarlik bo‘sh bo‘lgani sabab qilib ko‘rsatiladi. Biroq futbol o‘yinidagi g‘alaba ko‘pincha taktik rejalar kurashi bilan belgilanadi. Taktika ikki jamoaning jismoniy, texnik va manaviy irodaviy tayyorgarlikdagi darajalari teng bo‘lganda, ulardan birining g‘alaba qilishini ta’minlab beradigan muxum omilidir.

Ko‘pgina futbol mutaxasislarining e’tiroficha ustalik bilan ishlatilgan taktika muvfaqiyat keltira oladi. Ba’zi onlarda har qanday raqibga qarshi o‘ynaganda ham bir xil taktika ishlataveradilar. Taktika tomonidan bunday qashshoqlik bir xillik maxoratining o‘sib borishiga to‘sinqinlik qiladi. Xar bir jamoa xilma xil taktik rejada o‘ynay bilishi kerak, bir xil taktika jamoaga mag‘lubiyat olib kelishi mumkin.

1930-yillar boshida mashhur ingliz klubi “Arsenal” jamoasi bosh murabbiy A.Chenmen darvoza oldidagi eng xavfliy xudud ximoyasini mustahkamlash uchun markazi yarim ximoyachini orqa tortib, markazi ximoyachi qilib qo‘ydi. Tabiiyki, bu boshqa o‘yinchilarning joylari o‘zgarishiga, qolaversa, yangi taktik sistema ishlab chiqilishiga asos bo‘ldi. Sistema “dub-ve” nomini olib, hammaga maql keldi.

Braziliya terma jamoasi 1962-yilgi Jaxon birinchiligidagi 1-4-3-3 sistemada joylashib, unda yangi o‘yin ko‘rsatdilar. 1-4-3-3 taktik sistemada futbolchilar maydonda quydagicha xarakatlanishdilar. Xujumda o‘yinchilarning vazifasi shundan iboratki, ular maydon markaziga tezroq yetib borib, raqibga ximoyani tashkil qilishiga bermagan xolda uz xujumchilarga darvozaga to‘p tepish uchun

odinga chiqib olgan, uzoqdagi xujumchilarga to‘p uzatish eng to‘g‘ri yo‘ldir. Ommaviy ximoyada qisqa to‘p uzatishi yordamida kambinatsiyalar qilib ularni bir qanotga chalg‘itishi keyin maydon markazida ushlab turgan xolda uzoqqa to‘p uzatilishi o‘yin bilan o‘z ximoyachisi yoki yarim ximoyachisini xujumga jalb qilish zarurdir.

O‘rta chiziqdagi o‘yinchilar maydon bo‘ylab qatorasiga joylashadilar. Shuning uchun xam ularni o‘rta chiziqning aloxida oldingi, o‘rtadagi va keyingi o‘yinchilar deb atashadi.

Futbol o‘yinida taktik harakatlarning ahamiyati boshqa sport o‘yinlariga nisbatan ahamiyatlroq deya e’tirof etiladi. Shu sababli strategik fikrlash va futbolchilarni maydonga to‘g‘ri joylashtirish qobiliyati futbolning zaruriy va majburiy elementidir. Futbol rivojining bir yarim asrdan ko‘proq vaqt ichida bu o‘yin taktikasi ulkan pog‘onaga ko‘tarildi. Asli “beat-run” va “ommaviy” dan tortib murakkab “total futbol” va ancha murakkab “tiki-taka” nomli taktik harakatlar shakllanib borib hozirgi kunda ham rivojlanishda davom etmoqda.


Taktik tizim bu har bir o‘yinchining vazifalari va ularning futbol maydonidagi o‘rinlari belgilab kutilgan holda jamoa bo‘lib o‘ynash harakatlarni uyushtirish tushuniladi.

Har taktik tizimning doimiy alomatlari bo‘lib, o‘yinchilarning joylashtirilishi va uyining qanday usul hamda shaklda olib borilishi, Shuningdek o‘yinchilarning vazifalari Shular jumlasiga kiradi.

Ko‘pgina futbol mutaxassislari R.A. Akramov, R.I Nurimovlarning fikrlariga ko‘ra futbol dastlab boshlagan paytlarda garchi jamoalarda himoya va hujum chiziqlari nazarda tutilayotgan bo‘sada, hali taktika ishlab chiqilmagan edi. O‘yinchilarning maydonda joylashishi 1-1-9 va 1-2-8 tizimiga to‘g‘ri kelgan.


O‘yinchilar bunday tizimda joylashganda hujumchilar to‘p atrofida to‘planib qolishar, to‘pni egallagan o‘yinchi aldab o‘tish yordamida oldinga yorib o‘tishiga harakat qilardi, to‘pni bosh o‘ynash va uzoqdan turib darvozaga zarba berish qo’llanilgan. 1863 ning birinchi futbol qoidalari oldinga o‘tishni taqiqlaganligi sababli, o’sha yillardagi jamoalar taktika va strategiyani tanlashda juda cheklangan orqali to‘pni darvozaga etkazishga harakat qilishdi

va orqaga ishlatilmadi. Murabbiylik g'oyasining eng yuqorisi dribblingning xavfsizlik to'rining ixtiro qilinishi bo'ldi: bitta o'yinchi to'pni yo'qotib qo'yan taqdirda, hujumni jamoadoshlari sherigining ortidan davom ettirishdi.



1-rasm.
Jamoalarning maydondagi 1-4-4-2 taktik tizimi.

Futbolga birinchilardan jamoaviy taktik o'yinni, to'pni uzoq vaqt bir-biriga uzatish, har qanday hujum kombinatsiyalarni Shotlandiya terma futbolchilari kiritishgan. Shunga asoslanib futbolda "qator besh kishi" tizimi aniq ishlab chiqilgan dastlabki taktik tizim bo'ldi.



2-rasm.
Jamoalarning maydondagi 1-4-5-1 taktik tizimi.

Strategik jihatidan, ikkinchi Jahon urushidan keyin 50-yillarning oxiriga kelib afsonaviy Pele boshchiligidagi braziliyaliklar bu sxemaning kalitlarini topishga muvaffaq bo‘lishdi. Buning uchun lotin Amerikasi o‘ta hujumkor “4-2-4” tizimini qo‘lladi, unda ekstremal himoyachilarga alohida o‘rin berildi.

Hujum qilishda ular keskin oldinga o‘tib, sxemani “2-4-4”ga aylantirishdi. 1930 yillar boshida mashhur ingliz klubi Arsenalning treneri Chepmen darvoza oldidagi eng xavfli himoyani mustahkamlash uchun, markaziy yarim himoyachini orqaga tortib, markaziy himoyachi kelib kuydi. Tabiiyki, bu boshqa o‘yinchilarning joylari o‘zgarishiga, qolaversa yangi taktik tizim ishlab chiqishga asos bo‘ladi. Bu taktik tizim “dubl-ve” nomini olib, ko‘p vaqt jamoalar qo‘llab kelishdi.



3-rasm.
Jamoalarning maydondagi Dubl-ve taktik tizimi.

Ma’lum vaqtga kadar hujum bilan mudofaadagi kuchlar nisbati teng bo‘lib keladi. Biroq yaratishdan ko‘ra barbod etish hamma vaqt oson bo‘lgani uchun, ma’lum vaqtdan keyin himoya ustunroq keladigan bo‘lib, bu gollar miqdori kamayib ketishiga, uyining susayib ketishiga olib keladi.

X. Polki, X.Xemmolar 4-2-4 taktik tizimiga kuydagicha ta’rif berishadi, 4-2-4 tizimida o‘yin taqdirni ma’lum darajada ikki yarim himoyachi hal qila olganlar. Bular jismonan yaxshi tayyorgarlik ko‘rgan, hujum va himoya uyining barcha texnik – taktik

yo‘nalishlariga ega bo‘lgan o‘yinchilar edi. Ular hujumchilarga to‘pni qanchalik tez oshirib bersalar, hujum shunchalik muvaffaqiyatli va raqib uchun kutilmagan bo‘lgan.

1970 yilgi jahon birinchiligidagi birmuncha yangi taktik jarayonlar paydo bo‘ldi. Yetakchi jamoalar asosan 1-4-3-3 tizimda joylashib, unda engil o‘yin ko‘rsatdilar.

Keyingi 1974 va 1978 yillarda futbol jamoalari asosan 1+4+4+2 taktik tizimda maydonda harakat qilishdi. Ko‘plab jamoalar uchrashuvlarda himoyaga ko‘proq e’tibor bera boshlashgan. U futbol o‘yini tizimi umumiylashtirishni hal qilishda taktik tizim katta yordam berishini e’tirof etadi. O‘yinchilarini joy joyiga kuyish taktikasining takomillashishi ko‘p jihatdan futbolchining vazifasiga bog‘lik. Birinchi navbatda individual o‘yin yaxshi natija ko‘rsatadi. Ayniqsa hujumchilarga bita-ikkita himoyachi qarshilik ko‘rsatganda.

Bugungi futbolda individual taktik o‘yin uncha ham samara bermay qo‘ydi, chunki to‘pni olib yurish va raqiblarni birin-ketin aldash, qiyinlashdi futbolda pressing o‘yin ko‘rsatish bunga yo‘l qo‘ymaydi hozirgi davrimizda ham futbol klublari, terma jamoalar 1-4-3-3, 1-4-4-2 va 1-5-3-2 kabi taktik tizimlarda maydonga tushadi.

Chunki bu tizimda sof hujumchilar ikkita bo‘lib qolganiga qaramay hujumda faol ishtirok etishadi. Ular maydonning har bir nuqtasidan hujum qilaveradilar. O‘yinchilar individualgina emas, balki jamoaviy nazarda ham improvizatsiya qila oladilar. Bunda jamoa manyovrlari raqib uchun kutilmagan bo‘lib qolaveradi va o‘yin taktikasi o‘zgartirib turish imkoniyatini beradi.

Ko‘pgina murabbiylar futbol jamoalarning maydonga, raqibni o‘yin mahoratiga, kuchli kuchsiz jamoaligiga qarab taktik qo‘llashadi, jahon championatida yetakchi terma jamoalar: Braziliya, Italiya, Germaniya, Argentina kabi terma jamoalarning o‘zlarining o‘yin taktikasi, o‘yin usullari orqali necha bor jahon kubogini qo‘lga kiritishgan.

Futbol o'yining taraqqiy etishi, o'yinchilarning joylashishi va vazifalarni takomillanishiga o'zgarishiga olib keldi. Bunday taktik o'zgarishlar futbol o'yinini tezlashishiga sabab bo'ldi.

Yillar davomida futbol o'yinida taktikani o'zgarib kelishi, futbol mutaxassislari tomonidan o'rganilgan.

M.D. Romm, B.A. Arkadev, Ch. Xyus, kabi futbol mutaxassislari futbol o'ynidagi taktik xarakatlarni takomilashib borganligi va xar bir taktikani o'z davrida samara bergenini, jamolar raqiblari ustidan g'alaba qozonganliklarini takidlashgan.

Taktik sistema bu o'yinchining vazifalari va ularning futbol maydonidagi o'rinarini belgilab qo'yigan holda jamoa bo'lib o'ynash xarakatlarini uyushtirishdir.

Har taktik sistemaning ozmi-ko'pmi doimiy alomatlari bo'lib, o'yinchilarning joylashtirilishi va o'yinining qanday usulda olib borilishi shuningdek o'yinchilarni vazifalari shular jumlasiga kiradi.

Hujum bilan himoya o'rtasidagi kurash xar qanday sport o'yinining rivojiana borishiga tasir qiladigan asosiy omil xisoblanadi. Xuddi shu kurash futbol taktikasi doim taraqqiy etib turishini rag'batlantirib boradi. Taktik sistemalar ham jamoa o'ynining ifodasi hisoblanadi. Odatda, hujum bilan himoyadagi kuchlar nisbati yaxshi hamkorlika ega bo'lsa, o'yin juda samarali bo'ladi.

Biroq qaysidir bir murabbiyning himoyada jamoa harakatlarning uyushtirishning yangi variyantini ishlab chiqan bo'lsa, ma'lum paytgacha himoya hujumdan ustin keladi. vaqt kelib qarshi chora tariqasida hujum xarakatlarni uyutirishning zarur usuli ishlab chiqiladi. Shunday qilib, bir taktik sistema o'rniga boshqa progressiv bo'lgan sistama vujudka keladi. Lekin, individual taktik xarakatlarda yangiliklar tez-tez paydo bo'lib tursada batamom o'yin taraqiyotiga bog'liq.

Shvetsiyada bo'lib o'tgan 1958 yilgi jahon championatida Braziliya terma jamoasining ishonchli g'alabasi bilan yakunlandi. Braziliyaliklarning bu muvaffaqiyatiga butun jaxon darxol e'tirof etgan yangi taktik sistema ko'p jihatdan sabob bo'ldi.

Braziliya terma jamoasining o'yinchilari uch qator bo'lib, ya'ni ximoya qatorida turt kishi, hujum qatorida turt kishi va o'rta qatorda ikki kishi xarakatlangan.

Himoya qatorida o'yinchilarning ko'payganligi yangi taktik sistemaning avzaligi bo'lib, bu xol jamoa bo'lib xarakat qilishning zona sistemasiga o'tish va darvozaning zabt etilishi havfi eng kerakli joyda ishonchliroq straxovka qilish imkonini beradi. Ikki markaziy ximoyachidan biri sal orqaroqda o'ynab sheriklarini ximoya qiladi. Oldinda o'ynagan uch xujumchiga qarshi, endi, turt ximoyachi o'ynayotgani uchun ham shu tariqa ximoyalanish mumkin bo'ladi. Yarim ximoya qatori miqdor jihatdan o'zgarmaydi oldingi qatordagi o'yinchilar biroz kamayishi esa xar bir xujumchining operativ o'ynagan joyi kengayishiga (Braziliya jamoasida xamma xujumchilar yuksak mahoratlari o'yinchilar bo'lishgan) taminlaydi. Eng muximi raqiblarning bitta markaziy ximoyachisiga qarshi qo'shilish xisobiga bilinadi.

Yangi taktik sistemaning avfzaliklarini tez tushunib olib, xamma jamoalar shunday taktikaga o'ta boshladilar. Natijada 1962 yili Chilida bo'lgan chempionatda xamma terma jamoalar "Braziliya" sistemasida o'ynadilar. Biroq Braziliya terma jamoasi boshqacha taktik tizimda o'ynadi.

Braziliya terma jamoasi 1962 yilgi Jaxon birinchiligidagi 1-4-3-3 sistemada joylashib, unda yangi o'zin ko'rsatdilar. 1-4-3-3 taktik sistemada futbolchilar maydonda quydagicha xarakatlanishdilar. Xujumda o'yinchilarning vazifasi shundan iboratki, ular maydon markaziga tezroq yetib borib, raqibga ximoyani tashkil qilishiga bermagan xolda uz xujumchilarga darvozaga to'p tepish uchun odinga chiqib olgan, uzoqdagi xujumchilarga to'p uzatish eng to'g'ri yo'ldir. Ommaviy ximoyada qisqa to'p uzatishi yordamida kambinatsiyalar qilib ularni bir qanotga chalg'itishi keyin maydon markazida ushlab turgan xolda uzoqqa to'p uzatilishi o'zin bilan o'z ximoyachisi yoki yarim ximoyachisini xujumga jalb qilish zarurdir.

O'rta chiziqdagi o'yinchilar maydon bo'ylab qatorasiga joylashadilar. Shuning uchun xam ularni o'rta chiziqning aloxida oldingi, o'rtadagi va keyingi o'yinchilar deb atashadi.

Oldindagi o'yinchilar uzoqqa to'p oshirib xujumchilarni zarba berish uchun qulay joyga chiqarib, gox orqada, goxo o'rnini tez-tez almashtirib, o'zi xal qiluvchi zarba berish uchun xujumning oldingi qatoriga o'tadi.

Yon qanotlardagi himoyachilar yon qanot xujumchilariga qarshi xarakat qiladilar, oldindagi markaziy ximoyachi esa markazi xujumchining to'pni olishiga qarshi xarakat qiladi. Orqada o'ynayotgan erkin ximoyachi sheriklarining xatosini tuzatib, ximoyani tashkil qiladi, bunda u doimo o'z darvozasi oldidagi eng xavfli uchaskada bo'ladi. 1-4-3-3 sistemadagi jamoaviy xarakatlar uchun keng ko'lamli manyovirlar, maydon o'rtasida o'tishda uzoq masofaga to'p uzatib berishlar va bir ikki tegishdayoq to'p uzatiladigan taktik kombinatsiyalardan foydalanib o'tkaziladigan tez xujumlar xarakterlidir.

Futbol taktikasi evolyusiyaning davom etish 1-4-4-2 sistemasi paydo bo'lishiga olib keladi. Buning xususiyati shundaki unda o'rta qatorda turt kishidan iborat bo'ladi. Bundan tashqari o'rta qator bilan ximoya qatori o'yinchilari o'rtasida nagruzka bir tekisroq taqsimlangan bo'ladi.

O'rta qatordi mustahkamlanganda maydon o'rtasida o'yinchilar ko'payib ketadi. Ximoyada o'ynash mumkin bo'lib, ximoyachilarning xarakatlari tezkoroq, xar-xil bo'lib qoladi. Raqiblar oldingi qatordagi ikki-uch o'yinchining xar qanday xarakatlanishi xamma vaqt o'rta ximoyachining nazoratida bo'lishi shunday qilishiga yo'l qo'yib beradi.

1.2. Maydonda futbolchilarning taktik harakatlari

Futbol taktikasida raqibga qarshi kurashayotgan jamoada harakatlardagi uyushqoqlikka alohida futbolchilar o'rtasida vaziyatlarni aniq taqsimlash bilan erishadi. Hozirgi vaqtda o'yinchilarni vazifalariga o'yindagi ixtisosiga ko'ra bo'lish ular tayyorgarligidagi universallikka asoslangan bo'ladi. Bu hamma barcha birdek bajara oladi, degan so'z emas, albatta.

Ammo har bir futbolchi uyining texnik-taktik usullarni egallagan bo‘lishi, hujumda ham himoyada aktiv harakat qilishi kerak.

Taktikani-samarali yakunida maydonga futbolchilar ampulalariga bo‘linib harakatlanishadi. Maydonda futbolchilar himoya, yarim himoya, hujumchi vazifalarini bajarishadi.

Hozirgi futbolda himoyachilarning vazifalari kengayib ketdi. Ularning vazifasi endilikda raqib hujumni buzishdan iborat bo‘lmay, balki himoyada ishonchli o‘ynash Bilan o‘z jamoasining hujum harakatlariga aktiv qo‘shilishni birga qo‘shib olib borishdan iborat bo‘lmoqda. Ish hajmining juda ortib, harakat turlarining ko‘payib ketishi himoyachilarning jismoniy tayyorgarlik darajasi ortishini kuchi, tezkorligi, tezkor chidamliligi, elchiligi, sakrovdanligi, start tezligini Yuksakligi rivoj topishni talab qiladi. Bu o‘yinchilarda harakat muvofiqligi yaxshi erda va havoda mohirona yakkama-yakka kurasha oladigan bo‘lishi kerak.

Himoyachilarning hujumdagи taktik harajatlarini mutahasislari quydagicha baholashdi:

-To‘jni raqiblardan olib kuygandan keyin uni sheriklariga vaqtida va aniq uzatib berish.

-Jamoa hujumlarda, standart vaziyatlarda, hujum chizig‘ida faol harakatlana olish va ochilishi.

-Raqib uchun kutilmaganda hujumga tushishi, bunda to‘p shu himoyachida bo‘lib, u qanotdan, markazdan harakat qiladi, Shuningdek qanot hujumchisi Bilan o‘rin almashadi yoki hujumchilar bilan ham o‘rin almashadi.

Futbolda “uyidan tashqari holat” ham himoyachilarga raqib hujumlarni bartaraf etishda katta yordam beradi. Lekin uyidan tashki holatni yuzaga keltirishda himoyachilarning xatosi, raqib hujumchilariga yuz foizlik darvozaga gol kiritishni ta’minlaydi.

Yarim himoya futbolchilari maydondagi katta hajimdagi ishni bajarishadi. Mutaxassislar jamoa g‘alabasida yarim himoyachilarning uni beqiyosdir deb kurashadi. Bu ixtisosdagi futbolchilar butun uchrashuv davomida yuksak ishchanligini

ta'minlaydigan a'lo darajada har tomonlama tayyorgarlik ko'rgan bo'lishlari kerak.

Yarim himoyachilar hujum va himoyada aktiv bo'lishlari o'yinni yuksak suratda o'tkazishlari va birdam ham susaytirmasliklari darkor. Taktik tayyorgarlik yuzasidan, jamoa bo'lib o'ynash o'ynash vositalari va metodlarni tanlashda epchil va ixtirochi bo'lish yuzasidan o'rta qator o'yinchilari oldiga oshirilgan talablar qo'yishmoqda. Ular hujumda ham, himoyada ham hamma sheriklarning hamkorligini uyushtirib turadilar.

Jamoaning o'rta qator o'yinchilari ko'pincha turli taktik planda harakat qiluvchi futbolchilardan tuzilib, yarim hujumchi, dispatcher va yarim himoyachidan iborat bo'ladi. Yarim hujumchi asosan hujum qiluvchi uchinchi vazifasini bajaradi. Goho u hujumning boshida harakat qiladi va harakatini aktiv yakunlaydi. Dispatcher hujumda gruppa va jamoa harakatlarini uyushtiradi hamda ularni ikkinchi eshelondagi harakatlar bilan birga tushib olib boradi.

Yarim himoyachi birinchi galda o'z darvozasi mudofaasini tashkil etishga yordam berib – ba'zidagi jamoasining hujum qatorlariga yorib kiradi.

Mutaxasislar o'zlarining tadqiqot ishlarida, maydonda yarim himoyachilar texnik va taktik harakatlarini eng ko'p bajarishlarini ta'kidlashgan. Texnik harakatlarning to'p uzatishni yarim himoyachi 75%i qamrab bajaradi. Umumiyligi teknik – taktik harakatlarni o'yin jarayonida 100 – 105 bajarishadi.

Yarim himoyachilarga quyidagi talablar qo'yiladi:

- a) mudofaadan hujumga o'tishni tashkil etish va hujum rivojini davom ettirish;
- b) maydon o'rtasini nazorat qilish va jamoada uzoq vaqt to'pni boshqarib turishni, binobarin, tashabbusni qo'ldan bermay turishni ta'minlash.
- v) maydonning barcha erida o'ynay olish, joylashish hisobiga raqibning javob atakasi tez rivoj topishga taskinlik qilish.

Yuqori jumlalarda keltirilgandek, yarim himoyachi maydon markazida dispatcherlik vazifalarni bajaradi.

Taktik tomonlama dispetcher futbolchi maydonni ko‘ra bila oladi, to‘pni o‘zida ko‘p ushlab o‘yinchilarni ochilishini ta’minlaydi.

Hujumchilarning maydondagi harakatlari boshqa futbolchilarning taktik harakatlardan oson ko‘rinadi. Aslida, esa hech ham unday emas. Ko‘pgina futbol mutaxassislari futbolchilarning (hujumdagisi) maydondagi o‘yinlarni tahlil qilishgan.

Angliyalik oltin to‘p egasi hujumi K.Kiganning maydondagi texnik – taktik harakatlari haqida kuyidagi fikr bildirishadi: Kirgan – charchash nimaligini bilmaydigan o‘yinchidir, shijoatli, kurashchan boshqalarga o‘rnak bo‘ladigan xususiyatlari bor uchinchi.Uning maydonning har bir bo‘lagida ko‘rish mumkin, to‘pni olish, o‘z himoyachisiga ko‘rsatma berish, darvozalarga kutilmaganda zarba berish, bir qancha raqiblarni tezkor aldab o‘ta oladi.Kuzatishlardan ma’lum bo‘ladiki, hujum uyushtirishda qanot hujumchilari faol ishtiroki jamoaga g‘alaba keltiradi. Tezkorlik xislatlari yuksak bo‘lgan qanot hujumchilari yakka kurashda yoki eng yaqin turgan sherigi yordamida uni qo‘riqlayotgan o‘yinchini, dog‘da qoldirib, ilgarilab keta boshlaydi. Bunda kuyidagicha xarakatlarni amalga oshirish mumkin:

a) darvoza chizig‘i yakuniga chiqib, keyin sherigi zarba berishi yoki raqib oyog‘idan rikoshet bo‘lishini mo‘ljallab to‘pni darvozani uzunasiga etkazib berish.

1.3. So‘ngi xalaqaro musobaqalarda taktik o‘yinlar taxlili

XXI asr futboli o‘z ko‘rinishlari bilan tezkorligi, taktikasi, futbolchilarning harakatlari bilan XX asr futbolidan ancha farq qiladi.

O‘tkazilib kelingan jahon championatlarida ko‘plab terma jamoalar taktika borasida futbolga yangi usullarni olib kelishgan. Braziliya, Germaniya, Italiya, Argentina, Gollandiya terma jamoalari bir necha bor o‘zlarining taktik o‘yinlari bilan jahon futbolida yuksak natijalarga erishganlar.

Xozirgi futbol o‘yinda o‘yinchilarning texnik jixatdan moxir, jismoniy sifatlari rivojlangan bo‘lishigina emas, balki taktik tafakkuri xam yukori bulishini talab etmokda.

O‘yinchilarning harakatchanligi, universalligini oshirish va o‘yinni aniqroq uyushtirish xisobiga jamoaning xujum qudratini kuchaytirish tendensiyasi zamonaviy futbol taraqqiyotidagi bosh o‘yinlardan biri xisoblanadi. Zamonaviy futbolda xujum xam ximoya xam jamoa bo‘lib haraktlanishga qaratilgan o‘yin usullari bilan olib borilmokda. Maydon o‘yinchilarining o‘zaro almashib o‘ynashlari, ayniqsa xujumda chizig‘ida samrali harakatlanish imkoniyati berilmokda. Jaxon futbolida ayrim yulduz o‘yinchilarni individual harakatlari jamoaviy o‘yinga ko‘p buysindirilmokda. Shuningdek improvizatsiya kilish xam endilikda individual emas, balki guruxli bo‘lib tandem xosil qilish, rakib o‘yinchilarga qiychilikni olib keladi.

Germaniyada o‘tkazilgan Jaxon championatida futbol mutaxassislari ta’kidlab kelgan Yevropa, Janubiy Amerika, Afrika va Osiyo futbol uslublarining qo‘silib borilayotganligi haqidagi fikrni yana bir bor tasdiqladi.

Bu Braziliya, Germaniya, Angliya, Italiya, Gana, Yaponiya terma jamoalarining uyinlarida yakkol sezildi. 2002-yildagi jaxon championatining yarim finalida Osiyoliklar xam ishtirok etishdi. Janubiy Koreya futbolchilari texnika, taktika tomonlama juda yuksak tayyorgarlikka ega ekanligini amalda kursatishdi. Janubiy Koreya terma jamoasi dunyoning kuchli terma jamoalari Portugaliya, Italiya, Ispaniya ustidan g‘alaba kozonishdi.

Mutaxassislar e’torficha jaxon championatida futbol jamoalari taktik tomonlama kuyidagicha xarkatlanishgan. Futbolchidarning maydonda kenglik buyicha joylashuvi xar kanday chizik uyinchilarining almashib uynay olishi, universallik va ixtososlashuvi elementlari nisbati ancha zamonaviy tusga ega buldi. Jaxon championatida yetakchi jamoalarning Braziliya, Italiya, Angliya, Portugaliya, uyinlarida xujum va ximoya maksadlarida uyin tizimlarining turli variantlaridan foydalana bilish ko‘zga tashlandi.

Jamoalar himoya va yarim himoya o yinida 1-4-5-1, 1-4-3-3, hujumda esa 1-3-5-3, 1-3-4-4, taktik tizimlarda ham o‘yin kursatishdi. Shunga muvofiq ravishda uyin olib borishning kuyidagi uslublari eng makbul xisoblanadi.

Portugaliyada o‘tkazilgan Yevropa championatida ko‘plab jamoalar to‘g‘ri tanlangan taktika asosida g‘alabaga erishdilar. Gretsiya, Latviya, Portugaliya terma jamoalrining kullagan taktikalari bunga yakkol misol bo‘lla oladi. Bu terma jamolarning maydonda kullagan taktikalari bir-biridan fark kiladi. Gretsiya terma jamoasi maydonda ximoyaviy taktik usulini qo‘llab barcha terma jamoalar ustidan galaba kozondi. Latviya terma jamoasi xam ximoyaviy usulda uynab yaxshi natijali uyin kursatishdi.

Gollandiya, Chexiya, Angliya terma jamoalari xujumkor uyin uslublari orkali rakiblar ustidan galabaga erishdilar. Yevropa championatida kuplab terma jamoalar tugri tanlangan taktika orkali rakiblarni maglubitga uchrata oldilar.

Portugaliyada o‘tkazilgan Yevropa championatidan keyin ko‘plab futbol mutaxassisilari terma jamoalarning taktik o‘yinlari hakida shunday e’tiroflarni bildirishdi.

FIFA prezidenti Y.Blatter Gretsiya terma jamoasi himoyaviy uyin uslubi orkali tub burilish yasashdi. Ular Yevropa championligini kulga kiritishdi, ammo ximoyaviy uslubi kamdan-kam xollrada muvaffaqiyat olib keladi. Latviya terma jamoasi kutilmaganda ximoyaviy uyin uslubi orkali yevropaning kuchli jamolariga qarshi munosib o‘yin ko‘rsatishdi.

Mishel Platini Yevropa championati-2008, jaxon championati - 2010 da Ispaniya, Gollandiya terma jamolari xujumkor taktik o‘yinlari bilan xujum taktikasini namunasini (modelni) namoyish eta bilishdi. Urugvay, Gana, Argentina, Germaniya, Angliya terma jamolari xam xujumkor o‘yin kursatishdi. Ko‘p xollarda biz jaxon championati 2010-yilda o‘yinlarda xujum taktikasining rivojlanish tendensiyalarini kuzatishga muofiq bo‘ldik.

Osiyo futbol jamoalarining maydondagi taktik o‘yinlari taxlili.

Osiyo terma jamoalari ham o‘zlarining kuchli o‘yinlari bilan dunyo futbolida o‘z o‘rinlariga ega bo‘lishmoqda.

Osiyoning yetakchi Yaponiya, Janubiy Koreya, Saudiya Arabiston, Eron, Avstraliya terma jamoalari jiddiy o‘yin sifatida qarashadi.

Mutaxassislar e’troficha osiyo qit’asi terma jamoalari o‘tkazilgan so‘ngi jaxon championatlarida o‘z o‘yinlari bilan jaxon futboli mutasadilarning ishonchiga ega bo‘lishgan. Ularning fikricha endi jaxon chepionatida Yevropa, Janubiy amerika, Afrika qit’asi terma jamolariga qo‘silib Osiyolik futbolchilar ham yuqori o‘rnlarga davogar bo‘lishadi.

O‘rganilagan natijalarga ko‘ra Osiyo terma jamolari xar qanday raqibga qarshi xujumkor taktikada o‘yin ko‘rsatishgan, futbolchilarning tezkor harakatlari ularning raqibdan ustun bo‘lishni ta’minlagan.

2010-yilda jaxon championatidagi stastistik ko‘rsatkichlar bo‘icha Osiyo jamoalari yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lishgan. Osiyo terma jamolari uchrashuvlarida o‘z o‘yin taktikalarida xaraktlanishadi. Osiyo futbolning rivojlanishi terma jamolarda xam o‘yin uslublarning o‘zgarishaga olib keldi. Osiyo terma jamoalari o‘yini taxlil qilganimizda taktik tayyorgarlik bo‘yicha ko‘pgina ma’lumotlarni o‘rgandik.

Saudiya Arabistoni terma jamoasining taktik o‘yinlari

S. Arabistoni terma jamoasi Osiyoning kuchli terma jamoalaridan deb et’irof etiladi. Terma jamoaning xar bir uchrashuvda xujumkor taktikada xaraktlanishadi. Jamoa futbolchilarda xar bir o‘yinga g‘alabaga ishonch bilan tushish xususiyati bor. Ular doim o‘zlarini raqiblariga nisbatan kuchli deb xisoblashadi, va bu Saduiya Arabistonining ruxiy ustunligini ta’minlaydi. Futbolchilarning jismoniy baquvvat, tezkor. Qarshi xujumlardan ko‘p vaziyatlardan unumli foydalanishadi.

Janubiy Koreya terma jamoasining maydondagi taktik o‘yinlari

J. Koreya terma jamoasi dyarli barcha o‘yinlarga 4 – 4 – 2 taktik tizimda maydonga tushadi. J.Koreya terma jamoasi yevropa

futboli uchun anana xisoblanadigan kombinatsion o‘yin namoish etadi. Yarim ximoyaning kuchi jamoaning maydondagi ustunligiga asosiy sabab xisoblanadi. Xar bir yevropa futboliga xos jismoniy baquvvatlik, J.Koreyada ham yaqqol ko‘zga tashlanadi. Qarshi xujum ko‘p xollarda muvaffaqyatli amalga oshiriladi standart vaziyatlarda samarali o‘yilangan kombinatsin o‘yinlar va xar qanday raqibga xujumkor taktikada xarakatlanishadi.

Eron terma jamoasining maydondagi taktik o‘yinlari

Eron terma jamoasining maydondagi taktik tizim uslubi 1-4-4-2 bo‘yicha xarakatlanadi. Ma’suliyatli o‘yinlarda o‘zini yo‘qotib qo‘ymaydi. Texnik tomonlama malakalari yetarli, jamoa xar bir o‘yinda malakali yarim ximoyachi (dispatchir) bilan xarakatlanadi, bu esa Osiyoning boshqa hech qaysi vakiliga xos bo‘lmagan xususiyat. Raqib jamoalariga qarshi ko‘p xollarda xujumkor taktik usulini qo‘llashadi. O‘yinchilar yosh jixatidan ancha katta hisoblanishadi

Bob bo‘yicha savollar

1. Futbol o‘yin nechanchi yilda paydo bo‘lgan ?
2. Futbol o‘yinining dastlabki qoidalari nechta?
3. Taktik tizimlar evolyutsiyasi deganda nimani tushunamiz?
4. “Dubl-ve” o‘yin tizimini kim dastlab qo‘llagan?
5. “Tiki-taka” usulini qaychi jamoalar samarali qo‘llashgan?
6. “Total futbol” atamasi qaysi Jahon championatida ishlatala boshlangan?

II BOB. FUTBOLDA TEXNIK HARAKATLAR

Futbol texnikasining tasnifi texnik usullarni umumiyligi (yoki o‘xshash) o‘ziga xos belgilariga qarab guruhlarga bo‘lishdan iborat. O‘yin faoliyati ifodalanishiga qarab futbol texnikasi ikkita yirik bo‘limga ajratiladi: maydon o‘yinchisi texnikasi va darvozabon texnikasi. Har qaysi bo‘lim esa harakatlanish texnikasi va to‘pni boshqarish texnikasi bo‘limchalariga taqsimланади.

Kichik bo‘limlar turli usullarda ijro etiladigan muayyan texnik usullardan: harakatlanish texnikasi usullari va usullaridan iborat. Ulardan maydon o‘yinchilari va darvozabon foydalanadi. Ammo ayrim usul va usullar o‘zining muayyan turlariga ega. Usul va turlarda harakatning asosiy mexanizmi umumiyligi bo‘lib, detallardagina farq bo‘ladi. Har xil usul, usul va turlarni ijro etish shartlari futbol texnikasini yanada turli-tuman qiladi.

2.1. Harakatlanish texnikasi

Harakatlanish texnikasi quyidagi usullar guruhini o‘z ichiga oladi: yugurish, sakrash, to‘xtash, burilish.

Yugurish. Futboldagi asosiy harakatlanish vositasi yugurishdir. To‘pni boshqarmayotgan futbolchilar yugurish yordamida maydonda turlicha joylashib oladilar. Bundan tashqari, yugurish tarkibiy qism sifatida to‘pni boshqarish texnikasiga ham kiradi.

Futbolda yugurishning quyidagi usullari qo‘llaniladi: oddiy yugurish, tisarilib yugurish, chalishtirma qadam tashlab yugurish, juftlama qadam tashlab yugurish.

Sakrashlar.

To‘xtash va burilish usullarining ba’zilarini ijro etishda sakrashdan foydalaniladi. Sakrash zarba berishning ayrim usullari, to‘pni oyoqda, ko‘krakda, kalla bilan to‘xtatib qolish va ba’zi fintlar texnikasining qismiga kiradi. O‘yindan oldin, yon tomonlarga, yuqoriga hamda Shularga yaqin yo‘nalishlarda sakrashadi.

O‘yindagi vaziyat ko‘pincha maksimal baland yoki maksimal uzun sakrashni talab qilmaydi.

Bunda sakrashning samaradorligi futbolchining koordinatsion qobiliyati bilan belgilanib, futbolchi turli dastlabki holatlardan fazo, vaqt va kuch xarakteristikalari optimal bo‘lgan harakatlar qilishi kerak bo‘ladi. Barcha xil sakrashlarda depsinish, havoda uchish va erga tushish fazalari bo‘ladi. Sakrashning ikki xil usuli bor: bir oyoqda depsinib sakrash va ikki oyoqda depsinib sakrash.

To‘xtashlar.

Harakatlanish texnikasida to‘xtashga harakat yo‘nalishini o‘zgartirishning samarali vositasi deb qaraladi. To‘satdan to‘xtab qolganda, raqiblarning qayerda, qanday joylashishiga qarab turib to‘p bilan ham, to‘psiz ham o‘sha ketayotgan tomonning o‘ziga yoki qarshi tomonga otilib ketiladi, o‘ngga yoki chapga qochib qo‘llanadi. To‘xtashda ikki xil usul qo‘llaniladi: sakrab to‘xtash va tashlanib to‘xtash.

Burilishlar.

Burilish yordamida futbolchilar tezlik-ni minimal kamaytirib, yugurish yo‘nalishini o‘zgarti-radilar. Odatda, turgan joyda burilgandan keyin start harakatlari boshlanadi. Burilish, Shuningdek, zarba berish, to‘pni to‘xtatish, to‘pni olib yurish va fintlarning ayrim usullarini bajarish texnikasi tarkibiga ham kiradi.

2.2. Maydonda o‘yinchilarning texnik harakatlari

Maydon o‘yinchisining texnikasi ikkita kichik bo‘limdan iborat. Bulardan biri harakatlanish texnikasi bo‘lsa, ikkinchisi to‘pni boshqarish texnikasidir. Maydon o‘yinchilari harakatlanish texnikasining yuqorida tahlil qilingan xilma-xil usullari, usul va turlarining barchasidan foydalanadilar.

To‘pni boshqarish texnikasiga quyidagi usullar guruhi kiradi: zarba berish, to‘pni to‘xtatish, to‘pni olib yurish, aldash harakatlari (finlar), to‘pni olib qo‘yish. Bundan tashqari, qo‘lda bajariladigan

spetsifik usul – yon chiziqning narigi yog‘idan to‘pni tashlab berish ham to‘pni boshqarish texnikasiga kiradi.

To‘pga oyoq bilan zarba berish.

To‘pga oyoq bilan zarba berish oyoq kaftining ichki tomoni bilan, oyoq yuzining ichki, o‘rta va tashqi qismlari bilan, oyoq uchi bilan, tovon bilan bajariladi. Zarbalar harakatsiz turgan to‘pga, Shuningdek turli yo‘nalishlarda dumalab va uchib kelayotgan to‘pga turgan joydan, harakat vaqtida, sakrab turib, burilib, yiqila turib beriladi.

To‘pga kalla bilan zarba berish.

Bu texnik usul o‘yindagi muhim vosita hisoblanadi. To‘pga kalla qo‘yish o‘yin jarayonida yakunlovchi zarba berishda ham, sheriklariga to‘p oshirishda ham qo‘llaniladi. Peshona bilan zarba berish va Shuning variantlari bu usuldagi eng ko‘p foydalaniladigan usullardir. Ammo o‘yin vaziyatlari shunchalik ko‘p, to‘pning yo‘nalishi, traektoriyasi va tezligi shu qadar xilma-xilki, o‘yin jarayonida kalla bilan zarba berishning asosiy usuli variantlarini ishlatalish imkoniyati bo‘lmaydigan paytlar ham uchrab turadi. Bunday paytlarda chakka bilan, ensa bilan, boshning tepa qismi bilan zarba berish usullari ancha samara beradi. Biroq bunday zorbalar kamdan-kam qo‘llaniladi, Shuning uchun ularni maxsus qarab chiqmaymiz.

To‘pni to‘xtatish.

To‘pni to‘xtatish to‘pni qabul qilish va egallash vositasi bo‘lib xizmat qiladi. To‘xtatishdan maqsad keyingi kerakli harakatlarni amalga oshirish uchun dumalab yoki uchib kelayotgan to‘pning tezligini so‘ndirishdan iborat.

“To‘pni to‘xtatish” terminini ba’zida “to‘pni moslash”, “to‘pni qabul qilish” deb yuritiladigan ma’noda tushunish kerak bo‘ladi. Shuning uchun to‘pni to‘xtatish usullarini ko‘rib chiqayotganda, futbolchining to‘pni butunlay to‘xtatib olmay, balki uni keyingi harakatlarni bajarish uchun moslab olishini nazarda tutamiz. To‘p oyoq bilan, gavda va kalla bilan to‘xtatiladi.

To‘p olib yurish.

To‘p olib yurish yordamida o‘yinchi har xil joyga ko‘chib yurishi mumkin. Bunda to‘p doim o‘yinchi nazoratida bo‘ladi. To‘p olib yurishda yugurib, (ba’zan yurib) to‘pga turli xil zarba beriladi. Zarba berish ketma-ket va turli maromda, oyoq bilan yoki kalla bilan ijro etiladi. To‘p olib yurishning ba’zi usullari mustaqil ahamiyatga ega bo‘lmay, o‘yinda o‘z holicha kamdan-kam qo‘llaniladi. Ammo ularni to‘p olib yurishning boshqa xillari bilan birga qo‘shib olib borish o‘rinli bo‘ladi.

Masalan, son yoki kalla bilan to‘p olib yurish jihatdan noo‘rin. Lekin o‘yinda ko‘pincha shunday vaziyatlar yuzaga kelib qoladiki, unda to‘pni oldin bir necha marta kallada urib, keyin sonda ozroq o‘ynatib, pirovardida oyoq bilan kerakli usulda olib yurishga o‘tiladi.

Aldash harakatlari (fintlar).

Futbol texnikasining raqib bilan bevosita yakkama-yakka kurashda bajariladigan usullar guruhi aldash harakatlarini tashkil etadi. Fintlar raqib qarshilagini yengish va o‘yinni davom ettirish uchun qulay sharoit yaratish maqsadida ishla-tiladi. Fintlardan foydalanish hujumda ham, himoyada ham ko‘p taktik masalalarni muvaffaqiyatli hal qilish imkonini beradi. Futbol texnikasida aldash harakatlarining qo‘yidagi asosiy usullari ko‘zga tashlanadi: “qocha turib” aldash, “zarba berib” aldash, “to‘pni to‘xtatib” aldash. Bu fintlarni va ularning turlarini bajarishning xilma-xil usullari bor.

Aldash harakatlari texnikasini tahlil qilganda, ikkita umumiyl bosqich ajratib ko‘rsatiladi. Bulardan biri tayyorlov bosqichi bo‘lsa, ikkinchisi asl niyatni amalga oshirish bosqichidir. Aldash harakatlari birinchi bosqichda raqibda qarshilik ko‘rsatish uchun javob reaksiyasi uyg‘otishga qaratilgan bo‘ladi.

To‘pni olib qo‘yish.

Asosan, raqib to‘pni olib ketayotganda yoki qabul qilib olayotganda, undan to‘pni olib qo‘yishga harakat qilinadi. To‘pni olib qo‘yishning samarali chiqishi futbolchining vaziyatni baholash qobiliyatiga, ya’ni raqibgacha va to‘pgacha bo‘lgan masofani, ularning harakatlanishi tezligini, o‘yinchilar qanday turganligini va

aniq mo‘ljallay bilish qobiliyatiga bog‘liq. Raqibga yaqinlasha borayotib yoki ungacha bo‘lgan oraliq masofani saqlab turib, raqib to‘pni sal o‘zidan uzoqlashtirganda unga hujum qilish kerak. ila Shu paytda hujum qilayotgan o‘yinchi otilib boradi, to‘pni tepib, to‘xtatib yoki raqibni oyoq bilan turtib, to‘pni tortib oladi. To‘p olib qo‘yish ikki xil bo‘ladi: to‘la olib qo‘yish va chala olib qo‘yish.

To‘pni tashlash.

To‘pni tashlash – maydon o‘yinchilari qo‘lda bajaradigan yagona usul. To‘p tashlash harakatining tuzilmasi ko‘p jihatdan futbol qoidalarining talabiga qarab belgilanadi va unchalik murakkab hisoblanmaydi. Biroq to‘pni uzoqroq masofaga etkazib tashlash uchun maxsus ko‘nikma hosil qilingan bo‘lishi va qorin, yelka kamari hamda qo‘ldagi mushak guruhlariga muayyan darajada kuch berilishi kerak.

2. 3. Darvozabonning o‘yin texnikasi

Darvozabonning o‘yin texnikasi maydon o‘yinchisining o‘yin texnikasidan tubdan farq qiladi. Bu darvozabonga qoidaga binoan jarima maydoni ichida qo‘l bilan to‘p o‘ynashga ruxsat etilgani bilan bog‘liqdir. Quyidagi usullar guruhi darvozabonning o‘yin texnikasiga kiradi: to‘pni ilib olish, qaytarish, o‘tkazib yuborish va tashlash.

To‘pni ilib olish.

To‘pni ilib olish – darvozabon o‘yin texnikasining asosiy vositasi. Bu ko‘pincha ikki qo‘llab amalga oshiriladi. To‘pning yo‘nalishi, trayektoriyasi va tezligi qandayligiga qarab, uni pastdan, yuqoridan yoki yondan ilib ushlab olinadi.

To‘pni qaytarib yuborish.

To‘pni ilib olish mumkin bo‘lmagan hollarda to‘p qaytarib yuboriladi. Darvozabonning darvozaga ketayotgan to‘p yo‘lini to‘sishdagi, to‘g‘ridan g‘izillatib uzatilgan va yuqoridan uzatib tushirilgan to‘plarni olib qolishdagi harakatlari to‘pni qaytarib yuborishga kiradi. Bunda darvozabon to‘pni egallab olmaydi.

To‘p ikki qo‘llab ham, bir qo‘llab ham qaytarib yuboriladi. Birinchi usul ishonchliroq, chunki bunda to‘sib qoluvchi sath kattaroq bo‘ladi. Biroq ikkinchi usul darvozabondan ancha naridan o‘tayotgan to‘plarni qaytarib yuborish imkonini beradi.

To‘pni tepadan oshirib yuborish.

Darvozaga uchib kelayotgan to‘pni yuqori to‘sin ustidan o‘tkazib yuborishga tepadan oshirib yuborish deyiladi. Asosan darvozabondan yuqori yoki uning yon tomonidan kuch bilan va baland trayektoriyada uchib kelayotgan to‘p tepadan oshirib yuboriladi. Darvozabonning to‘pni tepadan oshirib yuborishdagi harakatlari ko‘p jihatdan to‘pni qaytarib yuborishdagi harakatlarga o‘xshaydi. Tepadan oshirib yuborish ham bir yoki ikki qo‘llab bajariladi. Etish qiyin bo‘lgan to‘plar yiqila turib tepadan oshirib yuboriladi.

To‘pni tashlab berish.

Hozirgi futbolda darvozabonlar to‘pni ko‘pincha tashlab beradilar, chunki bunda to‘pni tegpandagidan ko‘ra aniqroq yo‘naltirib berish mumkin. Tashlash masofasiga kelganda esa, tegishlicha jismoniy tayyorgarligi va a’lo darajada ratsional texnikasi bo‘lgan darvozabon to‘pni anchagina (35-40 m) masofaga tashlab bera oladi.

Bu texnik usul, odatda, asosan bir qo‘llab, ahyon-ahyonda ikki qo‘llab bajariladi. To‘pni bir qo‘llab tashlab berish yuqoridan, yondan va pastdan bajariladi.

Bob bo‘yicha savollar

1. Futbol texnikasi deganda nimani tushunamiz?
2. Harakatlanish texnikasi nechi qismidan iborat?
3. To‘pni olib yurish texnikasini qanday usullari bor?
4. Zarba berish usullarini sanab bering?
5. Aldab o‘tish harakatlarini turlarini ayting?

III. FUTBOLDA TAKTIK HARAKATLARNING NAZARIY ASOSLARI

3.1. Taktik mashg‘ulotlarni olib borish usuliyati va uni tashkil etish

Nazariy mashg‘ulotlarni olib borish yosh sportchilarning sport mahoratini tezroq rivojlanishiga yordam beradi. Mashg‘ulot o‘tish tayyorgarligini shartli ravishda o‘zaro bog‘lik bo‘lgan ikki qismga ajratish mumkin:

- nazariy tayyorgarlik, ya’ni taktik buyicha maxsus bilimlarni o‘zlashtirish

- amaliy tayyorgarlik, ya’ni aloxida guruxliy va jamoaviy haraktalarni o‘zlashtirish shuningdek, o‘yinchilarni ijodiy kobiliyatini rivojlantirish.

Amaliyotdan ma’lumki, kim nazariy jixatdan yaxshi tayyorgarlik ko‘rgan bolsa, taktik ko‘nikmalarni egallashda muvaffaqiyatga erishadi. Nazariy bilimlar murakkab o‘yin vaziyatlarda to‘g‘ri mo‘ljal ola bilishga, extimollik qarorlarni baxolash va ularni taxlil etishga, ularda eng samaradorligini tanlab olishga yordam beradi.

Taktikada nazariy tayyorgarlik o‘yin qoidalarini bilish va taktikaning aloxida vositalarini egallashni ko‘zda tutadi. Futbolchi o‘yining asosiy tizimlari va ularning variantlarini jamoadagi muayyan ampula o‘yinchilarining vazifasini uchrashuvning xar xil boskichlaridagi harakatlarning o‘zaro munosabatini ob‘yektiv shart-sharoitlarning o‘yin jaryoniga ta’siri xamda tashqi omillardan jamaa manfatlari yo‘lida foydalanishni bilish zarur.

Xar bir xarakatda bularning barchasini inobatga olish kerak. Taktik maxoart o‘sib borgan sayin bilimlarning o‘yin jarayonning ko‘rsatadigan ta’siri xam ortadi. Futbol taktikasi nazariyasini o‘rganish o‘yining asosiy qoidalarini tushuntirishdan boshlanib, ular o‘yin mashqlarini boshqarish davomida xamda mashg‘ulot o‘yinlari vaqtida amaliy jixatdan o‘zlashtiriladi.

Murabbiy jamoa ichidagi vazifalarning taqsimlanishi alovida o‘yinchilar oldilaridagi muammolar xaqida yosh shug‘ullanuvchilarga to‘liq tushunarli ma’lumot berishi, muayyan xududda o‘ynaydigan anik bir o‘yinchining harakatlari yordamida ixtisoslashtirilgan tarzda ayrim o‘yinchilarning asosiy vazifalarini ta’riflab berishi lozim.

O‘rgatishning keyingi pog‘anasi o‘yinning alovida boskichlarini batafsil taxlil kilib chikadilar. Yaxshisi bunday taxlilda o‘tkazilgan uchrashuvlarda o‘yinchilar yo‘l qo‘ygan kamchiliklarni tanqid kilib utgan ma’kul. O‘yin boskichlari taxlilidan so‘ng turli murakkablikdagi taktik vazifalarning nazariy yechimini o‘rganishga o‘tish mumkin.

Xarakat ko‘nikmalarini o‘rgatish jarayonida taktik faoliyatlarni amalga joriy etish uchun shug‘ug‘llanuvchilarga yo‘l qo‘yishi mumkin bo‘lgan xatolarning oldini olish xamda o‘rganilgan xarakatning mustaxkamlash usullari xakida tushuncha beriladi.

Taktikani o‘rgatish va uni takomillashtirishning asosiy usullari:

1. Mashq kilish usuli. (O‘rganilayotgan va yangi mashqlarni ko‘p karra takrorlash) Shug‘ullanuvchilarda harakatlanishning dinamik qoliplari streotiiplari shakllanishida yordam beradi.

2. Namoiyish etish va kursatish usuli.

3. Suzlashish usuli.

4. Yaxlit qismlarga bo‘lingan usul (yaxlit taktik harakatlarga o‘tishdan avval ulardan har birining asosiy qismlari o‘zlashtiriladi. Odatda taktik haraktalarni mustaxkamlash va shakllantirish uchun yaxlit usulga murojaat etiladi).

5. Taktikaga oid kinomateriallar taxlili raqib jamoa o‘yinini baxolashda juda katta axamiyatga ega. O‘yinlarni video tasmaga tushirishning afzalligi shundaki, u rakiblar o‘yinini ko‘p marotalab ko‘rib o‘rganishga imkon yaratadi. Bundan tashqari o‘z taktik harakatlarini taxlil etishga eng samarali yo‘llaridan biridir.

6. O‘z harakatlari va rakib xarakatlarini taxlil etish.

Odatda murabbiylar kuzatuvni mustaqil ravishda olib borishni afzal deb biladilar. Shundan keyin o‘yinchilarga faoliyat ko‘rsatish variantlarining tayyor qoliplarini beradilar: bu yosh futbolchilarni tashabbuskorlik va mustaqillikdan maxrum etadi. Demak, ularning o‘yin tafakkurini rivojlantirishga yo‘l qo‘ymaydi. Yosh futbolchilarning o‘yin musobaqalarini ko‘rishga jalg etish juda muxim. Ularni shunchaki o‘yin tomosha qilishga emas, balki jamoa qo‘llayotgan taktik variantlarga, xujum va ximoyada o‘yinni tashkil etish yo‘llariga, taktik vazifalarni xal etishda o‘yinchilar qo‘llaydigan vositalarga e’tibor qaratishni o‘rgatish zarur.

Yosh futbolchi taktik vazifalar ustida qanchalik ko‘p o‘ylab, ularning yechimini topsa, har xil sharoitlarda turli raqiblar bilan o‘yinlardagi o‘z taktikasi xamda shaxsiy tajribasini kanchalik chukur taxlil etsa, o‘zini o‘yin vazifalarini to‘g‘ri tushunish va baxolashga o‘yin payti oldiga qo‘yiladigan xilma xil vazifalarni mustaqil ravishda ijodkorona hal etishga shuncha yaxshi tayyorlaydi.

Taktik xarakatlarni o‘yin texnikasi bilan bir vaqtida o‘rganish maqsadga muvofiqqligi yuqori bo‘limlarda e’tirof etilgandi. Chunki dastlabki mashg‘ulotlarda yosh futbolchilarda mustaqillik, mo‘ljal olish tezkorligi xamda ijodiy faollikni tarbiyalash juda muxim. Shunda mashqlarni tanlash kerakki, ularni bajarish chog‘ida shug‘ullanuvchilar vaziyatni anglab, muayyan qarorlar qabul qilishi, o‘z faoliyatini baxolab, umumlashtira olishi lozim.

Taktikani o‘zlashtirishning dastlabi boskichida murakkab reaksiyalar tezkorligi mo‘ljal olish va ziyraklik, futbolchilarda ko‘prok jismoniy va texnik tayyorgarlik jarayonida rivojlanib boradi.

Buning uchun mashqlarga qo‘srimcha sharoitlar kiritiladi:

- ovozli va ko‘rish mumkin bo‘lgan signallardan foydalilanildi.
(o‘yinchilar to‘p bilan yoki to‘psiz bajaradigan u yoki bu harakatlarni tez o‘zlashtira olishlari uchun)

- to‘plarning miqdori, fishkalar, yordachi jixozlar bilan bog‘liq mashqlarning mo‘ljal yoki chegaralari soni ko‘paytiriladi.

- harakatlarning murakkablashtirish, qiyinlashtirishga o‘rgatiladi, ularda shug‘ullanuvchilarining joy almashtirish tezligining harakat yo‘nalishiga bog‘lik buladi.

- shartli sheriklarining faol yoki passiv qarshiligidan foydalilanadi, bunda qo‘srimcha sharoitlar yoki murakkablashtirishlar texnik usullar asosida yotuvchi jismoniy sifatlarning rivojlantirishiga yoki xarakat ko‘nikmalarining shakllanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatmasligiga axamiyat berish muxim.

Texnikaga oid u yoki bu mashqni bajarishda avval, shug‘ullanuvchilarining imkoniyatiga mos shunday taktik topshiriq tanlab berish kerakki, usullarning o‘zlashtirilishini murakkablashtirmasin, balki uning to‘g‘ri anglanishiga o‘zgaruvchan sharoitlarda oqilona qo‘llanilishiga ko‘maklashsin. Masalan, yosh futbolchi bir vaktning o‘zida harakat boshlash uchun qulay payt tanlab, ham zarba yo‘nalishini aniqlashi yoki sheriklarining joylashuvi va siljishiga karab to‘pni olib yurishi lozim bulgan sharoitlarda mashk bajarishi mumkin. Keyin aloxida xarakatlarni o‘zlashtirish raqibsiz o‘tkazilgan mashqlarda passiv raqiblar bilan va nixoyat o‘yin mashqlarida faol raqib bilan davom ettiriladi. Bu boskichda muxim vazifani bajaradi.

Uning faoliyatini murabbiy yo‘naltirib turadi. O‘rganilgan ko‘nikma o‘yin sharoitida ko‘p marotaba takrorlash yo‘li bilan mustaxkamlanadi. Bunday yosh futbolchiga muayyan topshiriqlar beriladi. O‘quv-mashg‘ulot va o‘rtoklik o‘yinlarida himoyadan xujumga va xujumdan ximoyaga o‘tishda to‘pni o‘yinna kiritish vaqtida joy tanlashga aloxida e’tibor karatish zarur. O‘yinchilarining raqibdan uzilib keta olishiga, jamoa o‘yinchilaring ochik joyiga chikishiga shuningdek, o‘z o‘yinchilarni yo‘qotgan zaxoti raqib o‘yinchisini o‘z vaqtida to‘g‘ri bekitishga erishish kerak.

Futbolda guruxli taktik harakatlarning asosini 2, 3 va undan ko‘proq o‘yinchilarining muayyan usullardagi o‘zaro munosabatlari tashkil etadi axamiyat berishi zarur. Ikki va uch undan ortiq o‘yinchilarining munosabatlarini yanada takomillashtirish o‘yin mashqlari va o‘kuv o‘yinlari jarayonida davom ettiriladi. O‘yin

mashklari dastlab, hujumchilar mikdori jixatdan usutnligida, keyin xujumchilar va ximoyachilar sonini tenglashtirib va nixoyat xujumchilar midorni kamaytirib o'tkaziladi.

O'yin mashklari xamda o'quv o'yinlariga futbochilarni o'r ganilgan usullarni qo'lay vaziyatlarda qo'llashga majbur kiluvchi sharoitlarni kiritish maqsadga muvofiq.

O'yin mashqlarini bajarish va o'quv o'yinlarini bajarish chog'ida murabbiy shug'ullanuvchilarning harakatlarini to'g'ri davom ettirishi uchun eng qulay variantlarni tanlash malakasiga yuzaga kelgan vaziyatni mustaqil baxolay olishga muayyan sharoitda mo'ljal olish tezligiga alohida axamiyat berishi zarur.

3.2. O'yin taktikasi.

Futbolda taktika o'yinchilarning muayyan rejaga asosan raqib ustidan g'alaba qozonishga qaratilgan individual va jamoaviy harakatlarini tashkil qilishi demakdir.

Futbolda qanday taktikani tanlash raqib jamoasining o'yinlarini chuqur o'r ganish orqali ustunlik va kamchiliklarini aniqlash va Shuni inobatga olgan holda taktik vazifalarni belgilash orqali amalga oshiriladi.

Taktika uchrashuv vaqtida butun o'yin faoliyatining asosiy mazmuni hisoblanadi. Konkret raqibga qarshi to'g'ri tanlangan kurash taktikasi muvaffaqiyat qozonishga yordam beradi, noto'g'ri tanlangan yoki uchrashuv mobaynida asqatmagan taktika esa odatda mag'lubiyatga olib keladi.

Raqiblarni neytrallash vazifalarini to'g'ri hal qila bilish va hujumdagi o'z imkoniyatlaridan muvaffaqiyatli foydalana olish umuman komandaning ham, uning alohida o'yinchilarining ham taktik yetukligini ko'rsatadi. Hujum va himoyada hamma futbolchilarning harakatlari yaxshi uyuştirilgan hamda, albatta, faol bo'lgandagina komanda muvaffaqiyatga erisha oladi.

Futbol o'yinida taktika bilan texnika bir-biriga chirmashib ketgan bo'ladi.

To‘pni kimga va qanday uzatish lozim, raqibni dog‘da qoldirish uchun aylanib o‘tishni ishlatalish kerakmi yoki to‘pni sherikka oshirgan ma’qulmi, darvozaga qaysi paytda zarb berish zarur ekanligini hal qilayotgan o‘yinchi taktik tafakkurdan foydalanadi, ahd qilgan harakatini amalga oshirayotganda esa u texnik mahoratini namoyish etadi. Demak, texnika o‘yinchining texnik rejalarini amalga oshirish vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Texnik tayyorgarlik a’lo darajada bo‘lsagina xilmaxil taktik harakatlarni bajarish mumkin.

Strategiya – bu futbolchilarni tayyorlash va raqobatbardosh faoliyat tizimidagi eng katta konseptsiya. Jamoani musobaqaga tayyorlash strategiyasi murabbiylar shtabining jamoani jalg qilish, jismoniy va funksional tayyorgarlik, o‘yinni qo‘rish, asosiy tarkibni aniqlash, boshlang‘ich tarkibni aniqlash, taktikasini tanlash kabi boshqaruv bosqichlarini nazarda tutadi. Agar ushbu vazifalarning barchasi samarali ochilgan bo‘lsa, unda biz futbol jamoasini boshqarishda strategik jihatdan to‘g‘ri yondashuv haqida gapirishimiz mumkin.

Agar biz strategiyani faqat raqobatbardosh jihatdan ko‘rib chiqsak, unda bu erda, birinchi navbatda, musobaqadagi raqobatbardosh faoliyatni strategik jihatdan to‘g‘ri rejalashtirish kerak – milliy chempionat kabi qisqa muddatli yoki undan uzoqroq muddatlarda. Shu munosabat bilan, har bir alohida o‘yin uchun tanlangan strategiya asosida jamoani maqsadga muvofiq tayyorlashdan iborat vazifa paydo bo‘ladi. Buning uchun o‘yin taktikasi kerak.

Taktikalar strategiyaning bir qismidir, unga bo‘ysunadi, unga xizmat qiladi. Agar strategiyada yakuniy maqsadga erishish ko‘zda tutilgan bo‘lsa, unda taktika alohida o‘yin masalasini hal qiladi. Futbol mutaxassislari taktikani o‘yinchilarning raqib ustidan g‘alaba qozonish uchun individual va jamoaviy harakatlarini tashkil etish yoki raqib bilan muomala qilishning shakllari, usullari va vositalarining to‘plami sifatida tavsiflaydi. (jamoalar) bitta uchrashuvda maqsadga erishishni maqsad qilgan.

Futbolchining taktik tayyorgarligi — kurash vositalari va usullari va texniktaktik tayyorgarlik vazifalari tizimi, Shuningdek, nazoratchilar va rasmiy o‘yinlar, unda futbolchilar yaxshilanib, ularni olib keladigan barcha zarur bilimlarni o‘z ichiga olgan murakkab jarayon. uning taktik jasorati. Taktik tayyorgarlikning yo‘nalishi asosan “futbol taktikasi” ning turli mutaxassislari tomonidan konsepsiyaning aniqlanishidan kelib chiqadi.

O‘yin tizimi o‘yinchilarning maydonda joylashgan joyiga asoslangan. Barcha maydon o‘yinchilarini uch guruhga bo‘lish od़at tusiga kirgan: orqa chiziq, o‘rta chiziq, oldingi chiziq futbolchilari. Har bir uchrashuv oldidan murabbiy nafaqat futbolchining tarkibini, balki o‘yin uslubini ham belgilab beradi. Jamoa o‘yin o‘ynash taktikasidan foydalanganda o‘yin uslubi faol bo‘lishi mumkin, passiv — jamoa asosan maydonning birinchi zonasida mudofaa harakatlarini uysushtiradi va kombinatsiyalangan — barcha uchta presslash turlari yuqori, o‘rta, past ishlataladi.

Tizim va usul jamoaning uslubini belgilaydi. Uslub — bu individual yoki jamoaviy o‘yinni tavsiflovchi xususiyatlari to‘plami. Uslubning xarakterli xususiyatlari — o‘yindagi kollektivizm, kombinativlik, dinamizm, taktik fikrlash, axloqiy va irodaviy munosabat. Futbol jamoasi o‘yinining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri bu ritm — tushunchadir — o‘yinchilar va jamoaning harakatlarining o‘z vaqtida nisbati. Yuqori darajadagi jamoalar o‘yin paytida taktik ustunlikni ko‘pincha o‘yin ritmini o‘zgartirib olishlari mumkin. Futbol o‘yinining o‘zi aritmiya bilan ajralib turadi, bu birinchi navbatda o‘yin qoidalariga bog‘liq. Barcha toifadagi o‘yin ritmini tartibga solish yuqori toifadagi jamoa uchun juda muhimdir.

Jamoaning o‘yin uslubi asosan kombinatsiyalar bilan belgilanadi. Futbol o‘yini ikki bosqichdan iborat: to‘pni egallash bosqichi va to‘p bilan muomala qilish bosqichi. To‘pni egallash bosqichida turli xil kombinatsiyalar qo‘llaniladi, bu o‘yinchilarning muayyan o‘yin vaziyatidagi kelishilgan harakatlari sifatida tushunilishi kerak. Adabiyotlarni tahlil qilish asosida xulosa

qilishimiz mumkinki, futboldagi kombinatsiyalar turlariga nisbatan umumiy nuqtai nazar mavjud emas.

Biroq, taktik tayyorgarlikning yuqori darajasiga bosqichma-bosqich erishiladi va o‘yinchilar tomonidan katta kuch sarflanishi bilan bog‘liq bo‘lib, ular maydonda ham konstruktiv, ham buzg‘unchi funksiyalarni bajaradigan tarzda o‘ynashi kerak.

Futbol taktikasi hujum va himoyadagi individual, guruhli, jamoaviy harakatlardan iborat bo‘lib, ular raqibning o‘yin darajasi va uning o‘yin xususiyatlari, maydon holati, iqlim sharoiti hisobga olingan holda jamoaning oldida turgan vazifalarni hal qilishga imkon beradi.

O‘yining taktik tizimlari — bu o‘yinchilarni o‘yin funksiyalari va individual qobiliyatlariga muvofiq maydonga tizimli ravishda joylashtirishdan iborat bo‘lgan jamoaviy harakatlarni tashkil etish: darvozabon, himoyachilar, yarim himoyachilar, hujumchilar. Futbol o‘yini mavjud bo‘lgan davrda o‘yining taktik sxemalari doimiy ravishda takomillashtirib borildi. Bunga murabbiylar va futbolchilarning himoyani va hujumni kuchaytirishda optimal kombinatsiyani topish istagi sabab bo‘ladi.

Zamonaviy futbolda ko‘plab jamoalar 1-4-4-2 sxemasidan foydalanadilar. darvozabon oldida to‘rtta himoyachi, so‘ngra to‘rtta yarim himoyachi va nihoyat, ikkita hujumchi bor. Ushbu tartib ishonchli himoyaga va hujum harakatlarini tashkil qilish uchun katta imkoniyatlarga ega bo‘lishga imkon beradi. Axir hujumga o‘rta chiziqdagi futbolchilar ham, himoyachilar ham, ayniqsa ekstremal himoyachilar faol jalb qilinishi kutilmoqda. Umuman olganda, ushbu taktik sxema aksariyat o‘yinchilarning funksiyalarini sezilarli darajada kengaytiradi.

Bir qator jamoalar ushbu sxemaning turli xil variantlaridan foydalanadilar. Kichik futbolchilar tarkibida kichkina maydonda o‘ynashning taktik tizimini o‘rganishlari kerak. Faqatgina astasekin, ushbu futbol versiyasini o‘zlashtirganingizdan so‘ng, o‘zingizni katta futbol maydonida sinab ko‘rishingiz maqsadga muvofiqdir. Va endi, Yosh do‘sstar, nihoyat har xil rollarda o‘ynaydigan futbolchilar qanday funksiyalarni bajarishini aniqlash

kerak. Buni bilish juda muhimdir, chunki jamoaning harakatlaridagi tashkiliylik va aniqlik asosan o‘yinchilar o‘rtasida funksiyalarni taqsimlash bilan belgilanadi.

Futbol taktikasi — bu sportchilarning harakatlanish harakatlarini birlashtirish va amalga oshirish, belgilangan maqsadga erishish uchun yetakchi samarali raqobatbardosh faoliyatni ta’minlash yoki ma’lum bir reja asosida jamoa futbolchilari o‘zaro ta’sirini ta’minlash, bu raqib bilan kurashni muvaffaqiyatli olib borish imkoniyatini beradi.

Taktik tayyorgarlikda quyidagi asosiy yo‘nalishlarni ajratib ko‘rsatish kerak:

- taktikaning nazariy va uslubiy qoidalarining asoslari va mohiyatini o‘rganish;
- taktik harakatlar asosiy elementlari, texnikasi, variantlarini o‘zlashtirish;
- taktik fikrlashni takomillashtirish;
- taktik tayyorlikni amaliy amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni o‘rganish; taktik tayyorlikni amalda bajarish.

Taktikalar uchta asosiy toifaga bo‘linadi:

- 1) o‘yinchini joylashtirish;
- 2) jamoaning hujumga yoki himoyada, butun jamoaga yoki uning bir qismiga nisbatan harakatlari;
- 3) standart qoidalar.

O‘yinchilar va murabbiylar har bir o‘yinchining maydondagi rolini va o‘yin maqsadiga erishish yo‘llarini belgilashlari muhim — gol urish va raqiblariga bunga yo‘l qo‘ymaslik. Buning uchun siz taktikaning uchta tomoniga ham e’tibor berishingiz kerak, shuningdek, umuman o‘yin evolyutsiyasini kuzatishingiz kerak.

Taktik tayyorgarlikda quyidagi asosiy tushunchalarni ajratib ko‘rsatish kerak: Taktik bilimlar — bu futbol taktikasining vositalari, turlari va shakllari va ularni mashg‘ulotlarda va raqobatbardosh faoliyatda qo‘llashning o‘ziga xos xususiyatlari to‘g‘risida g‘oyalar to‘plami.

Taktik mahorat — bu futbolchining ongini namoyon qilish shaklidir, uning harakatlarini taktik bilimlar asosida aks ettiradi (raqibning rejalarini ochib berish qobiliyati, raqobat kurashining rivojlanish yo'lini oldindan bilish, o'z taktikasini o'zgartirish). Taktik ko'nikmalar o'rganiladi va individual, guruh va jamoaviy harakatlar kombinatsiyasini avtomatik ravishda bajaradi.

Taktik ko'nikmalar har doim aniq raqobat yoki mashg'ulot sharoitida yaxlit, to'liq taktik harakatlar shaklida namoyon bo'ladi.

O'yinchilarning joylashuvi. O'yinchilarning joylashishi har bir o'yinchining maydondagi o'rnini belgilaydi. Futbol ideal ravishda o'zboshimchalik bilan improvizatsiya bilan to'la o'yin bo'lishi kerak bo'lsa ham, barcha muvaffaqiyatli jamoalar intizomga katta ahamiyat berishadi. Jamoa futbolchilari murabbiy ishlab chiqqan tarkibni kuzatishi kerak. Vaqt o'tishi bilan tobora ko'proq yangi tizimlar ishlab chiqildi. Birinchi marta o'yin 19-asrning o'rtalarida uyushgan xarakterga ega bo'ldi. O'sha paytlarda taktik sxemalar deyarli yo'q edi, chunki aniq o'yin pozitsiyalari yo'q edi.

O'sha paytlarda katta bo'lgan futbolchilar hozirgi bolalar singari olomon to'pni ortidan yugurishdi. Keyin individual mahorat ustun keldi, xususan dribbling. Vaqt o'tishi bilan o'yin yanada qiyinlashdi. Bunga asosan ofsayd qoidasi sabab bo'ldi. U Regbedan qarz oldi va ular asosan futbol o'ynaydigan davlat maktablarida ishlab chiqildi. O'sha paytda ofsayd holati to'pdan ko'ra raqib darvozasiga yaqinroq bo'lgan o'yinchiga uzatma berilgan holat edi. Uning oldida qancha raqib bo'lishining ahamiyati yo'q edi. Sakkiz kishi hujumga uchragan paytlar uchun bu odatiy bo'limgan.

Darvozabon va ikkita himoyachi o'z maydonlarining yarmida qolishdi, ulardan biri yarim himoyachi, ya'ni yarim himoyachi, yarim forvad deb nomlandi. Shunday qilib, birinchi taktik sxema yaratildi, uni 1-1-1-8 deb belgilash mumkin.

Juda qisqa vaqtdan so'ng, hujumchilardan biri qanot qanotiga tortilib, 1-1-2-7 tizimini hosil qildi burchak to'plari uchta asosiy to'plamlardan biri bo'lib, bo'lar erkin zarbalar va to'p tashlashlardir. Hisob-kitoblarga ko'ra, gollarning 50 foizidan ortig'i belgilangan pozitsiyalardan uriladi.

Taktikaning har bir ko‘rinishida taktik fikrlashning ahamiyati kattadir. Taktik fikrlash – bu futbolchining vaqt tanqisligi va ruhiy zo‘riqish sharoitida sport faoliyati jarayonida to‘g‘ridan-to‘g‘ri aniq taktik muammolarni hal qilishga qaratilgan tafakkuri. Futbolchilarning taktik tayyorgarlik darajasi ularning sport taktikasini (texnikasi va ularni amalga oshirish usullari), uning turlarini (hujum, himoya, qarshi hujum) va shakllarini (individual, guruh va jamoaviy) o‘zlashtirishiga bog‘liq.

Harakat mahoratini shakllantirish qonuniyatlariga asoslanib, alohida taktik harakatni o‘rgatish jarayonida uch bosqich ajratiladi. Taktikaga dastlabki o‘rgatish. Ushbu bosqichning maqsadi o‘rganilayotgan texnika yoki harakat asoslarini o‘zlashtirishdir. Dastlabki mashg‘ulotlar tanishishdan boshlanadi. Taqdimot, hikoya va amaliy mashqlar texnikasi kombinatsiyasidan foydalilanadi. Dvigatel sezgilarini va tasavvurlarini yaratish uchun amaliy mashqlar usuli qo‘llaniladi.

O‘rganilgan harakatni takrorlashga urinishlar nisbatan doimiy va soddalashtirilgan sharoitlarda amalga oshiriladi. Takrorlash o‘lchovini belgilashda yangi koordinatsion mashqlar tezda boshlang‘ich futbolchilardagi tegishli asab markazlarining charchoqlarini keltirib chiqarishini yodda tutish kerak.

Shuning uchun, ushbu bosqichda mashqlarni ketma-ket takrorlash eng samarali hisoblanadi: har biri 8 – 12 marta takrorlangan ikki – uchta seriyali. Takrorlashlar va to‘plamlar orasidagi intervallar dam olish uchun yetarli bo‘lishi kerak. Ular, shuningdek, kerakli yozuvlar va o‘rganilayotgan harakatni qayta ko‘rsatish uchun ishlatilishi mumkin.

Dastlabki tayyorgarlik bosqichining davomiyligi o‘rganilayotgan harakatning murakkabligiga, o‘quvchilarning qobiliyatlari va tayyorligiga bog‘liq. Odatda, yangi materialni o‘rganish keyingi 35 mashg‘ulot davomida davom etadi. Taktik vazifalarni amaliyot va nazariy bilimlar hamohangligida qo‘llash Shug‘ullanuvchilarda ko‘nikma shakllanishiga yordam beradi.

Dastlabki o‘rgatish mashg‘ulotlar, qoida tariqasida, taktik harakatni bajarishning optimal variantidan sezilarli og‘ish bilan

birga keladi. Shuning uchun xatolarning sabablarini tez va to‘g‘ri aniqlash va ularni yo‘q qilish yo‘llarini ta‘minlash juda muhimdir. Ilg‘or o‘rganish bosqichdagi mashg‘ulotning maqsadi — o‘quvchilarning individual xususiyatlariga mos ravishda o‘rganilayotgan material asoslarini batafsil mustahkamlash. Texnikani yoki harakatni chuqur o‘zlashtirish jarayonida qisman mahoratga aylanib, vosita mahorati shakllanadi.

O‘rganilayotgan harakatlarning to‘g‘ri, aniq va erkin bajarilishiga hissa qo‘sadigan markaziy asab tizimining tartibga solish jarayonlarini zarur qayta qurish (qo‘zg‘alish kontsentratsiyasi, ichki tormozlanishning rivojlanishi va boshqalar) sodir bo‘ladi.

Amalga oshirilgan harakatlar naqshlarini aniq va ongli ravishda tuShunish o‘quv muammolarini muvaffaqiyatli hal qilishga yordam beradi. Harakat jarayoni va uning asosiy parametrlari to‘g‘risida shoshilinch ma’lumotlarning turli xil vositalari sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi. Ideomotor treningning o‘rni esa tobora ortib bormoqda. Barcha mashqlar qat’iy maqsadga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak. Stereotipik takrorlanishlar soni kamayadi va o‘zgaruvchan takrorlanishlar soni ortadi. Stereotipli va o‘zgaruvchan takrorlanishlarning taxminiy nisbati 30% va 70% ni tashkil qiladi. Vaziyat yanada murakkablashadi, mashqni bajarish vazifalari turlicha bo‘ladi, o‘rganilgan harakatni maksimal tezlikka va harakat bilan bajarishga harakat qilinadi.

Ushbu bosqichda bitta darsda takrorlash soni ko‘payadi. O‘rganilgan harakat 10-12 daqiqa davomida takrorlanadi, undan so‘ng 3-5 minut qo‘llaniladi. Kommutatsiya O‘yin mashqlariga eng samarali o‘tish. Sinfda maxsus hissiy fon yaratadigan, mashqlar ta‘sirini kuchaytiradigan va o‘quv jarayonini faollashtiradigan o‘yin va raqobatlashadigan usullardan keng foydalaniladi.

Mustahkamlash va takomillashtirish bosqichi. Ushbu bosqichning asosiy vazifalari o‘zlashtirilgan harakatlarni yanada mustahkamlash, ularni avtomatizm darajasiga etkazish va o‘yin sharoitida ishonchli foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirishdir. Ushbu bosqichda ular jismoniy tarbiya usullarining barcha

turlarini qo'llaydilar. Amaliy mashg'ulotlardan, harakat sharoitlari keng o'zgargan holda o'zgaruvchan mashqlar usuli o'zining afzal qo'llanilishini topadi. Harakat mahoratini oshirish vazifalari quyidagi uslubiy metodlar yordamida hal etiladi: — futbolchi harakat qiladigan muhitni o'zgartirish; — futbolchilarning funksional va foydalanish bilan tavsiflanadi. Taktik harakatlarni amalga oshirishda operatsion vazifalarning ikki darajasi xarakterlidir: sezgir-idrok etish — kutilmagan vaziyat natijasida bir nechta alternativlardan qaror qabul qilinadi; bashoratli — raqibning harakatlarida va reflektiv xulq-atvoridagi naqshlarni hisobga olish natijasida qaror qabul qilish.

Himoyada o'ynash tamoyillari.

1. Butun jamoa himoyasi — jamoaning barcha o'yinchilari o'yinning turli bosqichlarida himoyada qatnashadilar.
2. Himoyada ishora ishlatish — maqsadiga yaqinroq bo'lgan o'yinchi sheriklarining harakatlarini boshqaradi.
3. Strahovka tamoyillariga rioya qilish — Sherikning pozitsiyasi Shunday bo'lishi kerakki, u har doim sherikning xatosini o'z vaqtida tuzatishi mumkin bo'lsin.
4. Xavfli zonada o'yinchini yopish — hujum uyuştirgan o'yinchi harakatini boshqarish va uni darvoza zonasida qattiq qo'riqlash.
5. Himoyani tashkil etishda guruh va jamoalarning o'zaro ta'sirining zichligi va ixchamligi — futbol maydonida to'pni ushlab turgan raqibni yaratish, vaqt va bo'sh joy etishmasligi.
6. Raqib tepganda o'z darvozasiga borish — raqib to'pni olishidan oldin o'z darvozangni qo'riqlashi kerak .
7. O'yindan tashqari sun'iy pozitsiyani yaratish. Hujum prinsiplari.
 1. Futbolchining to'psiz individual harakatlari (ochilish, chalg'itish, raqamlı ustunlikni yaratish) va to'p bilan (dribbling, paslar va darvoza tomon zarbalar) — futbolchining maqsadga muvofiq harakatlari, uning eng ko'p tanlash qobiliyati bir nechta mumkin bo'lgan yechimlardan optimal.

2. O‘yin epizodlarida va standart holatlarda simulyatsiya qilingan kombinatsiyalarni qo‘llash — kombinatsiyaning tuzilishini, uning mazmuni va bajarilishining asosiy tamoyillarini o‘rganish va takomillashtirish zarur.

3. O‘yin epizodi davomida jamoa to‘pga egalik qilgandan so‘ng, tezkor hujumdan foydalaning:

— dastlabki bosqich

— himoyada qatnashgan o‘yinchilarning hujum chizig‘idagi joylariga qaytishi bilan himoyadan hujumga o‘tish. va to‘pni oldindagi o‘yinchiga tezda uzatish;

— rivojlanish bosqichi

— hujumni kuchaytirish va hujumni zararsizlantirish bo‘yicha harakatlarni uyushtirish uchun vaqt topmasdan raqiblarni himoya qilishda yutuqni amalga oshirish;

— yakunlash bosqichi

— so‘nggi zarba bilan raqib darvozasida keskin yoki golli vaziyat yaratish.

4. To‘pni uzoq vaqt davomida boshqarishda pozitsion hujumdan foydalanish, qaytishi va to‘pni ochilgan qanot himoyachilari va himoya yarim himoyachilaridan biriga uzatishi;

— rivojlanish bosqichi

— maydonning ma’lum joylarida va hujumchilarning individual harakatlarida son ustunligini yaratish bilan har xil kombinatsiyalar orqali amalga oshiriladigan raqib darvozasi tomon bosqichmabosqich o‘tish.

3.3. O‘yinchilarning vazifalari

Har qanday taktik reja agar har bir futbolchi o‘ziga berilgan vazifani aniq amalga oshirsagina muvaffaqiyatli amalga oshiriladi. Raqibga qarshi kurashayotgan komanda harakatlaridagi uyushqoqlikka alohida futbolchilar o‘rtasida vazifalarni aniq taqsimlash bilan erishiladi. Har bir futbolchi taktik vazifadan kelib chiqib to‘p bilan yoki to‘psiz holatda aniq harakatlarni bajarib imkoniboricha xato qilmaslikka urinishlari lozim. Futbolchilar

vazifalariga ko‘ra darvozabonlarga, qanot himoyachilari, markaziy himoyachilar, o‘rta qator o‘yinchilari, qanot hujumchilari va markaziy hujumchilarga bo‘linadi.

Darvozabon. Zamonaviy futbolda darvozabonlar uchun haf darajasi bir muncha oshdi. Bu jarayon futbol o‘yini tempining oshishi asosida yuzaga chiqmoqda. Darvozabon hamma jismoniy tayyorgarlikka va yaxshigina antropometrik ko‘rsatkichlarga ega bo‘lishi lozim. Odatda, darvozabon – baland bo‘yli dovyurak va jur’atli, sakrovchan, epchil va hozirjavob, harakatlarini yaxshi muvofiqlashtira oladigan, yaxshi mo‘ljal oladigan va rejelay biladigan bo‘lishi; to‘pning ehtimoliy uchish yo‘nalishi, tezligi va traektoriyasini darhol aniqlay olishi, himoya jarayonini mohirona idora qilishi, ya’ni uning izchilligi va uyushqoqligini ta’minlay bilishi kerak. Darvozabon joyida turib, harakatlanib va sakrab o‘ynashning barcha texnik usullarini a’lo darajada bilishi zarur.

Darvoza oldidagi o‘yin bilan darvozadan chiqib harakat qilishni muvaffaqiyatli qo‘shib olib borish, o‘z darvozasini himoyalash va hujum uyushtirishda sheriklar bilan bahamjihat harakat qilish ham darvozaboning Yuksak mahoratini ko‘rsatadi. Ushbu harakatlar raqiblarning yaxshi tashkil etilgan himoyasida amalga oshiriladi; — yakunlash bosqichi — hujumchilarning shok holatiga kirish imkonи bilan raqib darvozasida keskin yoki golli vaziyat yaratish.

Qanot himoyachilar.

Futbolda o‘yin sur’atini oshishi va taktik tizimlarning rivojlanishi asosida himoyachilar jumladan qanot himoyachilarining harakat faoliyati ko‘lami ancha kengayib ketdi. Ularning vazifasi endilikda raqib hujumini «buzish»dangina iborat bo‘lmay, balki himoyada ishonchli va mohirona o‘ynash bilan o‘z komandasining hujum harakatlariga faol qo‘shilishni uyg‘unlashtirib olib borishdan iborat bo‘lib qoldi.

Ularning harakat diapazonining oshishi ularning jismoniy va psixologik holatini yuqori darajada bo‘lishini talab etadi. Bu o‘yinchilarning harakat muvofiqligi yaxshi bo‘lishi, erda va havoda mohirona yakkama-yakka tortisha olishlari kerak. Ular jamiki

texnik usullarni yaxshi bilishlari, raqiblarga mohirona bas kelib, himoya va hujumni uyushtirishda kerak vaqtida, bilib birgalashib harakat qilishlari kerak.

Mudofaada harakatlarida qanot himoyachilariga bo‘lgan asosiy talablar:

a) raqib darvozasiga yaqinlashib qolganda, qattiq qo‘riqchilik qilishga o‘tish

(yakkama-yakka kurashda ham mohirona o‘ynash bilan birga);

v) havoda kurash olib borish (yuqoridan to‘p uzatil-ganda);

g) sheriklarini, lozim bo‘lib qolganda esa darvoza-bonni ham strahovka qilish;

d) raqib zarba berganda va to‘p uzatganda, Shunga yarasha vaqtida harakat qilish. *Hujumda qanot himoyachilariga qo‘yiladigan asosiy talablar:*

a) to‘pni raqiblardan olib qo‘ygandan keyin uni sheriklariga vaqtida va aniq uzatib berish;

b) to‘p komandadosh sheri giga yoki darvozabonga o‘tganda, qanot tomonda mohirlilik bilan ochilish;

v) raqib uchun kutilmaganda hujumga qo‘shilish; bunda to‘p Shu himoyachida bo‘lib, u qanotda harakat qiladi, Shuningdek, qanot hujumchisi bilan o‘rin almashadi yoki qanotdagi zona bo‘sh qolganda, Shu hujumchi o‘rnida o‘ynaydi.

Markaziy himoyachilar.

Mudofaaning markaziy qismida o‘ynaydigan futbolchilar haqli ravishda asosiy o‘yinchilar hisoblanadi. Chunki ular darvoza zabit etiladigan eng xavfli joyda raqib bilan kurash olib boradilar.

Qanot himoyachilarining jismoniy va texnik fazilatlariga qo‘srimcha tarzda markaziy himoyachilar havoda kurasha olish uchun baland bo‘yli va juda sakrovchan ham bo‘lishlari kerak.

Oldingi markaziy himoyachi o‘ziga topshirilgan vazifa bilan zonada harakat qilishni mohirona uyg‘unlashtirib olib borishi kerak. O‘ziga topshirilgan o‘yinchini nazorat qilib borish uning uchun birinchi galagini vazifa bo‘lib, zonada harakat qilish ikkinchi navbatdagi vazifadir.

Oldingi markaziy himoyachi mudofaada markaziy hujumchining harakatlarini e'tibor bilan kuzatadi, zarur bo'lganda esa orqa himoyachi bilan o'rinni almashib, mudofaadagi sheriklarini strahovka qiladi. Hujumda u to'p olgandan keyin hujum harakatlariga qo'shilib, tezlik bilan olg'a boradi yoki sheriklariga to'p oshirib beradi. Ayrim paytlarda ikkinchi eshelondagi hujumni qo'llaydi va iloji bo'lsa darvozaga to'p tepadi.

Orqa chiziq markaziy himoyachisi taktik sharoitni nozik did bilan tushunishi, raqiblarining taktik yo'llarini «o'qiy» olishi hamda to'pni egallab olish va sheriklarini strahovka qilish uchun mudofaada to'g'ri pozitsiya tanlashi kerak.

Uning asosiy ishi – mudofaa qiluvchilarning hamma harakatlarini muvofiqlash, zonada o'ynash, darvozabon va sheriklar bilan hamkorlik qilish.

Sun'iy «o'yindan tashqari holat»ni to'g'ri uyushtirishga hammadan ko'p javob beradigan ham Shu o'yinchidir.

Hujumga o'tayotganda, orqa chiziq markaziy himoyachisi darvozabon yoki sheriklaridan to'p olish uchun ochiq joyga chiqadi, keyin esa aniq va xilma-xil uzatishlar qilib, hujumning davom ettirilishiga imkon yaratadi. Keskin holatlar yaratishda nisbiy erkinlikdan maksimal foydalanishga intilib, gohida uning o'zi ham hujumga qo'shiladi, ba'zan esa uzoq yoki o'rtacha masofadan to'p tepib, hujumni yakunlaydi. Hozirgi vaqtida himoyachilarning vazifalari universallashuv tomon taraqqiy etib, ularning harakatlari yarim himoyachi va qanot hujumchilarining harakati bilan yaqinlashib bormoqda.

O'rta qator o'yinchilari

Hozirgi futbolda o'rta qator o'yinchilarining harakatlariga ko'p jihatdan komandaning muvaffaqiyat qozonishiga aloqador omillardan biri deb qaraladi. Bu ixtisosdagi futbolchilar butun match davomida yuksak ishchanlikni ta'minlaydigan a'lo darajadagi har tomonlama tayyorgarlikka ega bo'lishlari kerak.

Ular hujum va mudofaa harakatlarida faol bo'lishlari, o'yinni yuksak sur'atda o'tkazishlari va uni bir dam ham susaytirmasliklari darkor. Taktik tayyorlik bo'yicha, komanda bo'lib o'ynash

vositalari va usullarini tanlashdagi epchillik va ixtirochilik bo‘yicha o‘rta qator o‘yinchilari oldiga oshirilgan talablar qo‘yilmoqda. Ular hujumda ham, himoyada ham hamma sheriklarining hamkorligini uyushtirib turadilar.

O‘rta qator o‘yinchilari mudofaada ham, hujumda ham bir xilda yaxshi o‘ynashlari, butun komanda o‘yinini tashkil eta bilishlari kerak.

Ularning harakatlari Yuksak darajadagi ijrochilik mahoratiga asoslangan va doimo mustahkam, kuchli bo‘lishi lozim. Ular nihoyatda xilma-xil uzatishlardan, aylanib o‘tish va hokazolardan foydalanadilar. Odatda o‘rta qatordagi Yuksak mahoratli o‘yinchilar kuchli, a’lo darajali, zarba bera oladilar.

Hujumda o‘rta qator o‘yinchilariga qo‘yiladigan asosiy talablar:

- a) mudofaadan hujumga o‘tishni tashkil etish va hujum rivojini davom ettirish;
- b) maydon o‘rtasini nazorat qilish va komandaning to‘pni uzoq vaqt boshqarib turishini, binobarin, tashabbusni qo‘ldan bermay turishini ta’minalash;
- v) hujumni yakunlashda qatnashish;
- g) ham yaqinda turgan, ham uzoqdagi sheriklar bilan hamkorlik qilish;
- d) hujumni rivojlantirishda to‘pni qanotdan tez oshirish va bo‘shagan zonaga tez ochilib chiqish yordamida qo‘qqisdan ro‘y berish holatini yuzaga keltirish.

Mudofaada o‘rta qator o‘yinchilariga qo‘yiladigan asosiy talabalar:

- a) maydonning bo‘yi va eni bo‘ylab to‘g‘ri taqsimlanib, joylashish hisobiga raqibning javob hujumi tez rivoj topishiga to‘sinqinlik qilish;
- b) o‘zi turgan zonadagi eng yaqin raqib o‘yinchisini yoki shaxsan birkitib qo‘yilgan raqibni kuzatib borish;
- v) to‘p uzatilishi va darvozaga to‘p tepilishiga yo‘l qo‘ymaslik;
- g) sheriklarni strahovka qilish va ular bilan hamkorlik qilish.

Komandaning o‘rta qatori ko‘pincha turli taktik planda harakat qiluvchi futbolchilardan tuzilib, yarim hujumchi, dispetcher va yarim himoyachidan iborat bo‘ladi.

d) hujumni rivojlantirishda to‘pni qanotdan tez oshirish va bo‘shagan zonaga tez ochilib chiqish yordamida qo‘qqisdan ro‘y berish holatini yuzaga keltirish.

Mudofaada o‘rta qator o‘yinchilariga qo‘yiladigan asosiy talabalar:

a) maydonning bo‘yi va eni bo‘ylab to‘g‘ri taqsimlanib, joylashish hisobiga raqibning javob hujumi tez rivoj topishiga to‘sqinlik qilish;

b) o‘zi turgan zonadagi eng yaqin raqib o‘yinchisini yoki shaxsan birkitib qo‘yilgan raqibni kuzatib borish;

v) to‘p uzatilishi va darvozaga to‘p tepilishiga yo‘l qo‘ymaslik;

g) sheriklarni strahovka qilish va ular bilan hamkorlik qilish.

Komandaning o‘rta qatori ko‘pincha turli taktik planda harakat qiluvchi futbolchilardan tuzilib, yarim hujumchi, dispetcher va yarim himoyachidan iborat bo‘ladi.

Yarim hujumchi asosan hujum qiluvchi o‘yinchi vazifasini bajaradi. Goho u hujumning oldingi qatorida harakat qiladi va harakatni faol yakunlaydi. Dispetcher hujumda guruh va komanda harakatlarini uyushtiradi hamda ularni ikkinchi eshelondagi harakatlar bilan birga qo‘sib olib boradi. YArim himoyachi birinchi galda o‘z darvozasi mudofaasini tashkil etishga yordam berib, ba’zi-ba’zidagina komandasining hujum qatorlariga yorib kirib boradi.

O‘rta qatorni tuzayotganda, o‘yinchilar bir-birini to‘ldirib, umuman Shu o‘yin ixtisosini uchun nazarda tutilgan barcha vazifalarning bajarilishini to‘liq va ishonchli ta’minlaydigan qilib tanlanadi. Biroq yarim himoyachilar o‘yin taktikasining rivojlanishidagi asosiy tendensiya Shundayki, ular komandaning yakunlovchi hujum harakatlarida bevosita ishtirok etadilar.

Qanot hujumchilari.

Futbolda hujum qatorining boshqa o‘yinchilari singari qanot hujumchilari ham tezkor, chaqqon, qo‘rqmas va bardoshli bo‘lishlari kerak. Harakat sur’ati va maromini o‘zgartira bilish, raqib kutmaganda «portlay olish» forwardlar (qanot hujumchilari) uchun shart bo‘lgan xislat. Erda va havoda samarali kurasha olish uchun hujumchilar sakravchan va kuchli bo‘lishlari kerak. Hujumchilarning bisotida to‘psiz mohirona manyovr qilish hamda zarba berish, to‘pni moslash, to‘p olib yurish, raqibni aldab o‘tishdek xilma-xil texnik usullarni yuqori tezlik bilan bajara bilish malakalari mavjud bo‘lishi shart.

Qolgan hujumchilar kabi ular ham hujum harakatlarining yakunlovchi bosqichida qat’iylik va mustaqillik ko‘rsatishlari, kombinatsion o‘yinda sheriklar bilan mohirona, bahamjihat harakat qilishlari, buni individual improvizatsiya bilan birga qo‘shib olib borishlari kerak.

Hujumda qanot hujumchilariga qo‘yiladigan asosiy talablar:

- a) «o‘yindan tashqari holat» chegarasida mohirlik bilan o‘ynash, Shuningdek, orqa va o‘rta qator o‘yinchilari uzatgan to‘pni olish uchun ortga qayta bilish;
- b) qanotda tezkor shaxsiy manyovr qilib, keyin to‘pni raqibning jarima maydoniga uzatish yoki g‘izzillatib oshirib berish;
- v) hujum qatoridagi sheriklari bilan yoinki hujumga qo‘shilgan himoyachilar va o‘rta qator o‘yinchilari bilan hamkorlik qilish;
- g) hujumni yakunlashda qatnashish.

Hujumi bekor ketganidan keyin mudofaaga o‘tayotganda, qanot hujumchisi qanot himoyachisini ta’qib qiladi yoki eng yaqinidagi to‘pni egallagan raqib bilan kurash boshlaydi. Qanot hujumchisi natijali hujum qilish uchun kuch saqlab, mudofaa harakatlarida kam, lekin faol qatnashadi.

Markaziy hujumchi.

Hujumni keskin davom ettirish yo‘llarini uzluksiz izlash, hujum qatorining «uchida» o‘ynash, komanda urinishlarini natijali

yakunlashda faol qatnashish bu futbol-chining asosiy vazifasi hisoblanadi. Markaziy hujumchi zarba pozitsiyasiga eng qisqa yo‘l bilan etishga intilib, maydonning butun kengligi bo‘ylab ko‘p martalab va xilma-xil tarzda ochilib chiqadi.

U tezkor manyovr qiladigan, bitta, ba’zan esa bir nechta himoyachi bilan kurashda darvozaga qarata zarba bera oladigan, sheriklari tepalatib uzatgan to‘pdan mohirona foydalana biladigan, qaytgan to‘pga qo‘srimcha zarba berishga intiladigan bo‘lishi kerak. Kurash-da qo‘rmaslik, qat’iylik, fidoyilik – bu xislatlarning hammasi yuqori mahoratli markaziy hujumchilarga xos fazilatlardir. Aslida mudofaada markaziy hujumchilarning muayyan vazifalari bo‘lmaydi.

Ularning hujumdagi faolligining o‘zi hujum qatoriga borib qo‘slishga jur’at etolmayotgan bir necha himoyachilar harakatini bo‘g‘ib turadi, chunki ularning ort tomonida tezkor, manyovrli raqiblari bor. Markaziy hujumchi yakkama-yakka kurash va vaqt tanqisligi sharoitida individual harakatlar bilan guruh harakatlarini mohirona qo‘shib olib boradigan, pozitsiyani ustalik bilan tanlaydigan, yakunlovchi harakat yoki usullarni bajara oladigan bo‘lishi kerak.

Himoya taktikasi

Himoya taktikasi bu to‘pni boshqarmasdan turib raqib hujumini neytrallash ya’ni hujumni ma’lum darajada bartarf etish harakatlariga aytildi. Himoyada o‘ynashning taktik san’ati raqibni qachon o‘z holiga qo‘ymasdan ta’qib etishni, qachon sheriklardan biriga berib yuborish va qachon zonada o‘ynashni bilishdan iborat.

Mudofaa qilayotgan komanda harakatlarining hammasi hujum qilayotganlar harakatiga javob tariqasida bo‘lib, raqiblar taktikasining xususiyatlariga qarab uyushtiriladi. Mudofaaning yaxshi uyushtirilganligi komandaga hujum harakatlarini ham muvaffaqiyatli bajarish imkonini beradi.

Himoyada o‘ynash xilma-xil va ko‘p planli bo‘lib, darvozani mudofaa qilishga, to‘pni qo‘lga kiritish uchun faol kurashish va hujum uyushtirishga qaratilgan bo‘ladi. Himoyadagi o‘yin ham hujumdagi singari individual, guruh va komanda harakatlaridan

Individual taktika.

To‘p boshqarayotgan va to‘p boshqarmayotgan o‘yinchiga qarshi harakatlar himoyadagi individual taktik harakatlarga kiradi.

To‘psiz o‘yinchiga qarshi harakatlar.

Himoyachi to‘pni boshqarayotgan o‘yinchiga qarshi harakat qilayotganda quyidagilarga intiladi: raqiblarning to‘p olishiga yo‘l qo‘ymaslikka, ya’ni to‘pni «to‘sib» olishga; raqibga yo‘naltirilgan to‘pni yo‘lda «olib qolish» harakatini bajarishga.

To‘pi bor o‘yinchiga qarshi harakatlar.

To‘pni boshqarayotgan o‘yinchiga qarshi harakatda himoyachi quyidagilarni bajarishga intiladi:

- a) to‘pni raqibdan olib qo‘yish;
- b) to‘p uzatilishiga to‘sinqinlik qilish;
- v) to‘p olib yurilishiga to‘sinqinlik qilish;
- g) zarba berilishiga to‘sinqinlik qilish.

To‘pni olib qo‘yish.

To‘pni olib qo‘yishda tezkorlikning, masofani his etish va vaqtini mo‘ljallashning, Shuningdek, butun o‘yin vaziyatini baholay bilishning ahamiyati kattadir. Futbolda bir xilda takrorlanadigan holat va vaziyatlar bo‘lmaydi, Shuning uchun hujum qilayotgan o‘yinchiga to‘p bermaslik uchun qachon va qayirda bo‘lishini himoyachining o‘zi aniqlashi kerak.

Ba’zan o‘yinchiga juda yaqin kelib, uning ketidan qolmasligi, ba’zida esa o‘z joyidan ketmasligi kerak bo‘ladi. Ammo har qanday holda ham hujum qiluvchiga bemalol to‘p olish imkonini bermaslik lozim. O‘yin sharoiti va oqibat qanday chiqishiga qarab himoyachi raqibdan to‘p olib qo‘yishning ma’lum bir usulini tanlaydi. Bunda sirpanish, to‘pni tepib yuborish, yelkada turtish va shu kabi usullardan foydalansa bo‘ladi.

To‘p uzatishga qarshi harakat.

Goho himoyachi qulay pozitsiyaga chiqib qolgan o‘yinchiga to‘p uzatilishiga qarshilik ko‘rsatishi kerak bo‘lib qoladi. Bunday vaziyatda to‘pni olib qo‘yishga yoki yakkakurash boshlashga kirishmagan ma’qul, chunki himoyachining noo‘rin harakati ahvolni keskinlashtirib yuborishi mumkin. Bunday vaziyatda to‘p

yuqorilatib yoki yonlamasiga uzatilishiga to'sqinlik qilish uchun himoyachi to'pni boshqarayotgan o'yinchiga 2-3 m qolguncha yaqin boradi. Uning asosiy maqsadi mudofaadagi sheriklari o'z pozitsiyalariga borib olishlari uchun vaqtdan yutishdir.

To'p olib yurishga qarshi harakat.

Basharti himoyachi to'pni olib qolishga yoki raqib to'p olayotganda uni olib qo'yishga ulgurmasa, unda butun harakati ishg'ol qilgan pozitsiyasi bilan to'pi bor raqibning tez ilgarilashiga halaqit beradi. O yinda hujumchi har qalay olg'a harakat boshlab qolsa, himoyachi unga parallel harakat qila boshlab, uni yon chiziqqa qisib qo'yishga harakat qiladi. Shunda hujumchining harakat joyi torayib, sheriklarining bevosita yordamidan mahrum bo'lib qoladi.

Raqib jarima maydoni yaqinida diagonaliga yoki darvoza chizig'iga parallel tarzda to'p olib ketayotgan bo'lsa, himoyachi to'p olib yurishga to'sqinlik qilibgina qolmay, balki hujumchini to'pni orqaga yoki maydonning ko'nda-langiga uzatib yuborishga majbur qilishi kerak.

Zarba berishga qarshi harakat.

Hujumchi jarima maydoni yaqinida darvozani mo'ljallab zarba bermoqchi bo'lganida eng xavfli vaziyat yuzaga kelishi barchaga ayon. Bunday holda himoyachi o'z darvozasiga orqa o'girib yoki yonlama turib, o'z pozitsiyasi yoki harakati bilan darvoza tomon zarba berilishiga qarshilik ko'rsatishi kerak. Himoyachining butun e'tibori raqibning oyoqlarida bo'lishi zarur: to'p uchib ketishi lozim bo'lgan yo'lga o'z oyog'ini qo'yib qolish uchun uning zarba beruvchi oyog'i orqaga tortilgan paytni payqab olishga harakat qilish kerak.

Guruh taktikasi.

Butun futbol o'yini boshdan-oyoq kombinatsiyalar asosiga qurilgan bo'lib, o'yinning mazmuni ham aslida Shu kombinatsiyalardan iborat. O'yin vaqtida qayta takrorlanmaydigan holatlar ko'p uchraydi. Har bir Shunday holatning o'z asosi bor. Bunday asoslarni har qanday o'yinchi, eng avvalo, himoyachilar

bilishi va tuShunishi lozim. Shunda taktik planda hujumchilarga qarshi harakat qilish va zarur usullarni qo'llash oson bo'ladi.

Mudofadagilar o'zining raqib bilan yakkama-yakka kurashayotgan har bir shergiga yordam beradi yoki yordam berishga tayyor turadi. Shunday qilib, shergiga bevosita va kerakli yordam berishdan tashqari, strahovka qilish ham uyushtiriladi. Mohirlik bilan joy tanlash esa aniq hamkorlik qilishga yordam beradi.

Himoyadagi guruh taktikasi darvozaga xavf solayotgan har qanday raqibga qarshi guruh bo'lib harakat qilishni nazarda tutadi va sheriklariga yordam berishga qaratilgan bo'ladi.

Strahovka, Shuningdek, «devor» va «kesishuv» kombinatsiyalariga qarshi harakatlar himoyada ikki o'yinchining hamkorlik qilish usullariga kiradi. Maxsus uyushtirilgan qarshi harakatlar, chunonchi, «devor» yasash, sun'iy «o'yindan tashqari» holat hosil qilish va darvozabon ishtirokidagi harakatlar uch va undan ortiq o'yinchining hamkorlik qilish usullari sanaladi.

Devor kombinatsiyasiga qarshi harakat. «Devor» kombinatsiyasiga qarshi kurashda bu kombinatsiya qayirda bo'layotganini hisobga olish kerak. Ba'zan hujumchilardan birini juda yaqin qo'riqlashdan voz kechib, zonada o'ynagan yoki «devor» kombinatsiyasini amalga oshirishga bo'sh joy qoldirmaslik maqsadida mudofaa kuchlarini jarima maydoni yaqiniga to'plagan ma'qul bo'ladi. Birinchi uzatilgan to'pni olayotgan raqibga nisbatan pozitsiyani tanlash bu kombinatsiyaga qarshi harakatdagi asosiy payt hisoblanadi.

To'pni tepib chiqarib yuborishni, raqibning javob uzatishini qiyinlashtirishni yoki uni dastlabki rejasidan qaytishga majbur qilishni mo'ljallab raqib yaqinidan joy tanlash kerak. Bunda orqadagi o'yinchining ahamiyati juda muhim bo'ladi. Voqealarning keyin qanday bo'lishi ko'p jihatdan uning kombinatsiyasi qanday davom etishini ko'ra bilishiga, Shuningdek, vaqtida yordamga kela bilishiga bog'liq.

«Kesishuv» kombinatsiyasiga qarshi harakat. Bu kombinatsiya darvozaga tahdid solish nuqtai nazaridan «devor»

kombinatsiyasidek xavfli emas. Odatda, bu kombinatsiya darvozadan ancha uzoqda qo'llanilib, asosan, tashabbusni saqlab turishga qaratilgan bo'ladi. «Kesishuv» paytida himoyachilar o'zi qo'riqlayotgan o'yinchilarning harakatiga, ayniqsa, to'p bilan qolgan o'yinchining harakatiga qattiq e'tibor berib, darvoza yo'lini to'sib olganlari ma'qul.

«To'pni tegmay uzatish» kombinatsiyasiga qarshi harakat. Bu kombinatsiya jarima maydoni doirasida eng samarali chiqadi. U kutilmagan harakatlarga asoslangan bo'lganligi uchun ham himoyachilar nihoyatda ehtiyot bo'lishlari kerak. Odatda, o'zi qo'riqlayotgan o'yinchi bilan ozgina fursat qarovsiz qoldirilgan hujumchi o'rtasida to'g'ri pozitsiya tanlagan himoyachi bu kombinatsiyaga qarshi harakat qila olishi mumkin.

Himoyachi to'p uzatilgan hujumchidan epchillik qilish va unga darvozani mo'ljallab zarba urishga imkon bermaslikka harakat qilishi kerak.

Ayni vaqtida hujumchi tepmoqchidek chog'lanib turib, to'pni sheringiga o'tkazib yuborishi mumkin. Shuning uchun himoyachi darvozani mo'ljallab tepishga halaqit berishgagina emas, balki tegmay o'tkazib yuborilgan to'pni olib qolishning ilojini qilishga ham tayyor turishi darkor. Birinchi bo'lib kurashga kirayotgan himoyachining sheriklari uning harakatlari muvaffaqiyatsiz bo'lgan taqdirda uni strahovka qilishga va hujumchi tegmay o'tkazib yuborgan to'pni olib qolishga tayyor bo'lishlari kerak.

Sun'iy «o'yindan tashqari» holatni vujudga keltirish. Bunday holatni vujudga keltirish mudofaadagi samarali uslub hisoblanadi.

Odatda, quyidagi hollarda sun'iy «o'yindan tashqari» holat vujudga keltiriladi:

a) raqib komandasini tashabbusni qo'lga olib, zo'r berib hujum qilganda va olg'a intilaver verganda;

b) raqib hujumchilari keskin ochilishga intilib, mudofaa ichkarisida bo'sh joyga chiqmoqchi bo'lganda;

v) tashabbus sizning komandada bo'lib, raqiblarning mudofaaga o'tib olishdan boshqa iloji qolmay, oldinda bir-ikki

o‘yinchinigina qoldirib, to‘plarni uzoqdan aynan Shularga uzatib bermoqchi bo‘lganda.

«O‘yindan tashqari holat»ni vujudga keltirish san’ati avvalo himoya qatoridagi o‘yinchilar harakatining bir-biriga mosligiga bog‘liq. Odatda, o‘z darvozasiga hammadan ko‘ra yaqin turgan himoyachining «o‘yindan tashqari holat»ni uyuştirish imkoniyatlari eng ko‘p bo‘ladi. U boshqa himoyachilarning harakatlari va qanday turganligini, Shuningdek, to‘pni boshqarayotgan raqiblarning harakatlari va niyatlarini zo‘r e’tibor bilan kuzatib borishi kerak.

To‘p darvozaga qanchalik yaqin bo‘lsa, himoyachilarning o‘z harakatlarini moslab olishlari va «o‘yindan tashqari» holatni uyuştirishlari Shunchalik murakkablasha boradi. Tajribalar bunday holatni vujudga keltirish hammadan ko‘ra maydonning markaziy chizig‘i bilan jarima maydoni chizig‘i oralig‘ida muvaffaqiyatli chiqishini ko‘rsatmoqda.

Jamoa taktikasi

Himoyada o‘ynashning umumiyligi taktika prinsiplari bor ekaniga qaramay, himoyachilar harakatida qator xususiyatlar mavjudki, bular ayrim o‘yinchilarning yoki bir guruh o‘yinchilarning asosiy vazifa va majburiyatlaridan kelib chiqadi. Ana Shu xususiyatlarni hujum endigina yuzaga kelayotgan paytda va hujumning boshida himoyalanayotgan komanda o‘yinchilarining harakatlarida ko‘rish mumkin. Shundan keyin, hujum rivojlanayotgan va yakunlanayotganda esa komandalar bir xil prinsiplarga rioya qiladilar.

Biroq himoyada o‘ynashning prinsip va individual usullarini bir-biriga bog‘lamay qarash noto‘g‘ri bo‘lur edi. Ularni bu xilda ajratish shartli tarzda bo‘lishi mumkin, xolos. Mana, masalan, himoyada zona usulida o‘ynayotgan komandada ayrim o‘yinchi yoki bir necha o‘yinchi zona prinsipi doirasidan chiqadigan individual vazifalarni bajarishi mumkin.

Tez hujumga qarshi himoya.

Agar raqib tomon hujumga o‘tayotganda, taktik vosita sifatida markaz yoki qanot bo‘ylab to‘p uzatib berishdan foydalanib, asosan, tez hujumga zo‘r beradigan bo‘lsa, himoyalanayotgan komanda o‘yinchilari mudofaaning birinchi bosqichida to‘p boshqarayotgan raqibga faol hujum qilib, bunda quyidagilarga intilishlari kerak:

- a) hujumning muvaffaqiyatli yoki muvaffaqiyatsiz chiqishini belgilaydigan birinchi uzatishga to‘sqinlik qilish;
- b) raqibni xato qilishga, eng yaqin turgan sheriklariga keraksiz uzatishlar qilishga majbur etish;
- v) har kim o‘zi qo‘riqlayotgan o‘yinchisini juda yaqindan to‘sib oladi, chunki to‘pi bor o‘yinchi oldi to‘silgan sherigiga to‘p uzatmaydi, uzoq pozitsiyadagi o‘yinchiga to‘p uzatishga urinish esa himoyachilarning to‘p uchun kurashini osonlashtiradi.

Agar raqib faol manyovr qilayotgan bo‘lsa, mudofaaning ikkinchi bosqichi qattiq shaxsiy qo‘riqlashni yoki (zona tizimidagi mudofaada) ayrim zonalarda paydo bo‘lib turgan raqiblarni sinchiklab kuzatib, ularning hujumni rivoj toptirishga urinishlarini barbos qilishini nazarda tutadi.

Agar raqiblar markaz bo‘ylab o‘ynayotgan bo‘lsa, himoya qatori o‘yinchilari markaziy zonani mustahkamlash va hujum qilish burchaklarini kichraytirish uchun jarima maydoni hududiga zichroq to‘planib oladilar. Bordiyu qanot bo‘ylab hujum qilinayotgan bo‘lsa, unda himoya qatori o‘yinchilari hujum yo‘nalishi tomonga yaqinlasha borib, ishonchliroq strahovka qilish maqsadida qarshi tomondagi qanotni ko‘pincha kimsasiz qoldiradilar. Birinchi holda, ya’ni raqiblar markazdan hujum qilayotganida, strahovka orqaga qaragan burchak shaklida bo‘lib, bunda ortki markaziy himoyachi bosh rol o‘ynaydi. Ikkinci holda esa o‘yinchi bilan faol kurashdan ozod bo‘lgan va darvoza tomonga yaqin diagonal bo‘ylab orqada turgan qanot himoyachisi ham strahovka uchun ortdagи markaziy himoyachi bilan babbaravar javobgar bo‘ladi.

Mudofaaning uchinchi bosqichida to‘p va o‘yin joyi uchun bevosita kurash nazarda tutiladi. Tezkor hujumga qarshi himoyaga bo‘lgan asosiy talablar:

1. To‘pni yana qo‘lga kiritish yoki raqibning uzoqqa birinchi to‘p uzatishiga xalaqit berish uchun, albatta to‘p uchun kurashga kirishish kerak.

2. Raqiblarning tezkor manyovr qilishi oldini olish bilan bir vaqtda maydonning hal qiluvchi qismlarida o‘yinchilar guruhlarini ko‘paytirish hisobiga darvoza tomon o‘tadigan hamma yo‘llarni yopib qo‘yish uchun ikkinchi va uchinchi bosqichlarda o‘yinchilar aniq harakat qilishlari lozim.

3. Uzoqdan to‘p birinchi marta kimga uzatib berilsa, o‘sha o‘yinchi neytrallanadi.

Tadrijiy hujumga qarshi himoya.

Tadrijiy hujumga qarshi kurash komanda mudofaa harakatlarini uyushtirishning juda keng tarqalgan turi hisoblanadi.

Mazkur himoya komanda harakatlarini amalgam shirayotganda, bunday o‘yin raqiblar uchun foydaliroqday tuyulishi mumkin. Chunki tashabbus ular qo‘lida bo‘ladi, vaqtidan ular ham tanqislik sezmaydilar. Biroq, himoyadagilar bir-biriga mos harakat qilib, raqibni muhim omil – darvozaga o‘tadigan yo‘ldan mahrum qilib qo‘yadilar.

Agar raqib tomon hujumga o‘tayotganda taktik vosita sifatida qisqa va o‘rtacha uzatishlardan foydalaniib, asosan tadrijiy hujumga zo‘r beradigan bo‘lsa, himoyalanayotgan komanda hujumning birinchi bosqichida faol kurash qilmay orqaga chekinishni ma’qul topadi. Bunda raqiblar to‘pni olg‘a surib borishni qiyinlashtirishni maqsad qilib qo‘ygan bo‘ladilar.

Tadrijiy hujumning ikkinchi bosqichida mudofaa o‘yinchilari hujum yo‘nalishida ko‘payishadi yoki jabha bo‘ylab tarqalib, joy va to‘p uchun kurashda qatnashadilar. Bunda strahovka uyushtirilishi shart.

Hujumning uchinchi bosqichida darvozaga yaqinlashgan sari raqiblarning to‘pi borlari ham, to‘pi yo‘qlari ham harakat tezligini, ayni chog‘da hujumdagi o‘yinchilar sonini ham oshira borayotgan

bir paytda himoyachilar zich to'siq hosil qilishlari va raqiblarning zarba berish pozitsiyasiga chiqishlarini qiyinlashtirib qo'yishlari kerak.

Komanda harakatlari.

O'yinchilarning hujum qilayotgan raqiblarga qarshi uyushqoq taktik harakatlari mudofaada komanda bo'lib o'ynash negizida yotadi. Bunday harakatlar hujumni muvaffaqiyatli qaytarish va mudofaa holatidan chiqib, hujumga o'tish imkonini beradi. Bu harakatlarning himoya qilish maqsadi xavfli zonada tez kuch to'plab, o'yinchilarni qayta joylashtirish va bir-birini almashlashdan iborat bo'ladi.

Ko'proq qanday vazifani hal etishga qaratilganligiga qarab, himoyadagi komanda harakatlarini shaxsiy himoya, aralash himoya va zona himoyasiga bo'lish mumkin. Shaxsiy himoya – bu mudofaa qilayotgan har bir o'yinchi o'ziga topshirilgan raqib o'yinchisi uchun qat'ian javobgar qilib uyushtirilgan mudofaa. Bunda komandaning har bir o'yinchisiga raqiblarning ma'lum bir o'yinchisini qattiq «tutib», uning harakat qilishini, sheriklari bilan ham-korlik qilishini qiyinlashtirish topshirib qo'yiladi.

O'yinchini qattiq «tutish» dan ko'zlangan maqsad raqibning o'yin harakatlarini boshlashiga yo'l qo'ymaslik uning boshlab ulgurgan o'yinini buzishdan ko'ra oson ekanligidir.

Buning uchun hujumchi bilan oraliq masofani Shunday saqlash kerakki, toki unga yo'naltirilgan to'pni olib qolish yoki hujumchi bilan birga harakatlana borish yoxud to'pni qabul qilish paytida unga hujum qilish mumkin bo'lsin.

Biroq, ko'pincha Shunday bo'ladiki, unda qat'ian shaxsiy himoyaga qarshi hujum to'g'ri uyushtirilsa, hujum qilayotgan tomon manyovrlar yordamida o'ziga kerakli zonani bo'shatib olish yoki qo'riqlovchilarni ular uchun o'rganish bo'limgan, qolaversa, o'zlariga xos vazifalarni bajara olmaydigan pozitsiyalarga olib ketish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shunda himoyachilarning o'zaro hamkorligi, strahovka qilish imkoniyati buziladi.

Shaxsiy qo‘riqlash o‘yinchilardan o‘yinni taktik jihatdan juda nozik tushunishni, tez harakat qilishni va o‘xshash vazifalarni bajara bilishni talab qiladi.

Hozirgi futbolda shaxsiy himoyada o‘ynash usuli sof ko‘rinishda ishlatilmaydiyu, lekin himoyaning taktik vositalari xazinasida u hamon muhim rol o‘ynab kelmoqda.

Zona himoyasi bu himoyada o‘yin olib borishning himoya qatori o‘yinchilaridan har biri maydonning ma’lum uchastkasini nazorat qilib, Shu zona doirasida paydo bo‘lgan har bir raqib o‘yinchisi bilan to‘p uchun kurashga kirishadigan taktik usulidir.

Zona himoyasida mudofaadagi o‘yinchi darvozaga nisbatan paydo bo‘lgan har bir xavf uchun o‘zini javobgar his etishi kerak. Bundan tashqari, zona himoyasida sheriklarning strahovka tarzida bir-biriga yordam berishi ham bo‘ladi.

Qo‘riqlanayotgan o‘yinchilarning bir-biriga «oshirishi» bunday himoyadagi zarur element hisoblanadi. Bu «oshirish» hujum boshlanishi oldidan yoki u endigina boshlangan vaqtda amalga oshirilishi kerak. Hujumning yakunlovchi bosqichida o‘yinchilarning bevosita o‘z darvozasi yaqinida «oshirish» elementini bajarish tavsiya etilmaydi.

Himoyadagi zonali o‘yin tizimining shaxsan qo‘riqlashga nisbatan afzalligi Shundaki, bunda maydonning hech bir qismi mudofaadagilarning nazoratidan chetda qolmaydi. Biroq bu tizim ham kamchilikdan holi emas. Bunda hujumchilar nisbatan bemalol harakatlanib joylarini o‘zgartiradigan bo‘lib, bu ularga har qalay behalaqit to‘p qabul qilish, son jihatdan ustunlik hosil qilish va imkoniyatlarini yaratadi.

Aralash himoya hozirgi futbolda himoyada o‘ynashning eng tarqalgan va eng oqilona taktikasi hisoblanadi. Bunda shaxsiy himoya bilan zona himoyasining prinsiplari uzviy qo‘shilgan bo‘ladi: ba’zi bir o‘yinchilar topshiriqqa binoan faqat o‘ziga topshirilgan raqib o‘yinchisini qo‘riqlab yursalar, boshqa birlari ko‘proq zonada o‘ynaydilar.

Shuningdek, bitta o‘yinchi ham bu ikkala metodni birga qo‘shib qo‘llashi mumkin. Shunday qila bilish himoyada o‘ynash

metodlarini ko‘paytirib, komandaning mudofaa harakatlari xazinasini boyitadi va bu harakatlarni kuchaytiradi.

3.4. Hujum taktikasi

Hujum taktikasi deganda to‘p ixtiyorida bo‘lgan komandaning raqib darvozasini zabit etish uchun qiladigan harakatlarini uyushtirish tuShuniladi. Hujum harakatlari tuzilishining xilma-xilligi, hujum rivoji sur’atining, assosiy yorib o‘tish yo‘nalishining o‘zgartirilishi, nihoyat, yakkama-yakka kurash, texnik usullarning xilma-xil bo‘lishi – bularning hammasi hujumni barbod etishga intilayotgan himoyachilarni nihoyatda qiyin ahvolda koldiradi.

Hujumdagи harakatlar individual harakatlarga, guruh harakatlari va komanda harakatlariga bo‘linadi

Hujumdagи individual taktika – bu futbolchining muayyan maqsadni ko‘zda tutgan harakatlari, uning mazkur o‘yin vaziyatida mavjud bo‘lgan bir qancha Individual taktika. Hujumdagи individual taktika – bu futbolchining muayyan maqsadni ko‘zda tutgan harakatlari, uning mazkur o‘yin vaziyatida mavjud bo‘lgan bir qancha imkoniyatlardan eng to‘g‘risini tanlay bilishi, futbolchining to‘p o‘z komandasida bo‘lganda, raqibning diqqat-e’tiboridan chetga chiqqa olishi, o‘zi va sheriklari uchun o‘ynaydigan bo‘sh joy topishi hamda paydo qila bilishi, kerak bo‘lib qolgan taqdirda esa himoyachi bilan kurashda yutib chiqishi demakdir.

To‘psiz harakatlar.

To‘psiz harakatlar quyidagilardan: ochilish, raqibni chalg‘itish va maydonning ayrim qismida o‘yinchilarning son jihatdan ortiqligini yaratishdan iboratdir.

Ochilish – bu futbolchining sheriklaridan to‘p olish uchun qulay sharoit yaratish maqsadida joy o‘zgartirishi. Mohirlik bilan ochilish uchun hujumchi u yoki bu vaziyatning qanchalar qulayligini juda yaxshi baholay oladigan bo‘lishi kerak. Eng qulay pozitsiyaga vaqtida chiqib olish hujumchi va unga qarshi o‘ynayotgan himoyachining tezkorlik xislatlariga, sheriklarning

harakatiga va boshqa omillariga bog‘liq bo‘lishi mumkin. Muvaffaqiyat ko‘p jihatdan hujumchining to‘p qabul qiladigan pozitsiyaga qanchalar tez chiqib olishiga va to‘p olgandan keyin qanday harakat qilishiga bog‘liq.

Hujumchilar asosan maydon bo‘ylab manyovr qilib, to‘psiz harakatlanib yuradilar. Manyovr qilish – bu futbolchining ochilib chiqishga va raqibni chalg‘itishga qaratilgan ko‘p martalab joy almashtirishi. Hamma harakatlarning natijasi, pirovardida matchning qanday tugashi, o‘yinchilar qanchalar to‘g‘ri pozitsiya tanlashiga, ayni paytda to‘pni diqqat-e’tibordan chetda qoldirmay, futbolchiga sheriklaridan qanchasi o‘zini «taklif etishi»ga bog‘liq.

Chalg‘itish harakatlarini amalga oshirganda quyidagilarni yodda tutish kerak:

1. Harakatlanishlar «rostakam» bo‘lishi, ya’ni chinakam xavf solib, himoyachilarini harakatlanayotganlar ortidan quvishga majbur etadigan bo‘lishi zarur.

2. Harakatlanishlar maksimal tezlikda bo‘lmashligi kerak, chunki raqib uning harakatlarini ilg‘amay qolib, quvishni boshlamashligi mumkin (tez harakatlanish chalg‘i-tish bo‘lmay, balki yuqorida aytilganidek ochilish bo‘ladi).

3. Chalg‘itish harakatlarining bir qancha variantlarini bilgan ma’qul, Shundagina himoyachilar faoliyati nihoyatda qiyinlashib qoladi.

To‘p bilan harakatlar.

To‘pni boshqarayotgan futbolchi harakatlarining asosiy variantlari to‘p olib yurish, aylanib o‘tish, zarba berish, to‘pni uzatish va to‘xtatishdan iborat.

To‘pni olib yurish. To‘pni egallagan o‘yinchining sheriklarini raqiblar to‘sib olgan bo‘lib, to‘pni uzatish imkonini bo‘lmasa, u holda mana Shu taktik vosita ishlatilgani ma’qul.

Bunday vaziyatda o‘yinchi quyidagi maqsadlarda to‘p bilan birga maydonda uzunasiga yoki ko‘ndalangiga harakat qila boshlashi kerak:

a) sheriklarining ochilishiga, shuningdek, ulardan birortasining hujum zonasiga o‘tishiga imkoniyat yaratib berish.

Bu holda sheriklarining yangi pozitsiyalarga chiqib olishiga vaqt yetarli bo'lsin uchun harakatlanish tez bo'lmasligi lozim;

b) raqib darvozasiga bevosita xavf solish uchun o'z-o'ziga sharoit yaratish. Bunda aks chora ko'rishni qiyinlashtirish uchun to'p maksimal tezlikda olib yuriladi. Bundan tashqari, sheriklarning pozitsiyasi qulayligidan darhol foydalanib qolish uchun to'pni boshqarayotgan futbolchi ularning harakatlanishini e'tibor bilan kuzatib borishi kerak.

Aylanib o'tish. Aylanib o'tish, ya'ni to'pni boshqarayotgan o'yinchining raqib bilan kurashda yutib chiqish maqsadidagi harakatlari mudofaadan individual o'tishning muhim vositasidir. Aylanib o'tish usullari qanchalik xilma-xil va samarali bo'lsa, hujum Shunchalik xavfliroq bo'la boradi.

Aylanib o'tishning quyidagi turlari mavjud: harakat tezligini o'zgartirib aylanib o'tish; harakat yo'nalishini o'zgartirib aylanib o'tish; aldash harakatlari.

Aldash harakatlari yordamida aylanib o'tish – o'yin joyi nisbatan chog'roq sharoitda kurash olib borishning eng samarali vositasidir. Fintlarning quyidagi turlari mavjud:

1. Zarba berib fint qilish. To'pi bor o'yinchi himoyachiga yaqinlasha turib, unga 3-4 m qolganda, go'yo to'pni Shundoqqina raqibga tepmoqchidek, oyog'ini qattiq orqaga tortadi. Raqib zarba tegishiga chog'lanib, odatda, o'yinchi yonidan utib ketganiga tez e'tibor berolmay qoladi.

2. Bu fint himoyachining yonida bo'sh joy bo'lgan hollardagina qo'llaniladi. Yo'qsa hujumchi o'zi bilan kurashayotgan himoyachining yonidagi himoyachiga ro'para kelib qoladi.

3. Qochib qolib fint qilish. To'pi bor hujumchi to'ppa-to'g'ri himoyachiga qarab ketaveradi. Orada 2-3 m masofa kolganida hujumchi chap tomonga ketmoqchidek harakat qiladi, keyin maksimal tezlikda himoyachining o'ng tomonidan aylanib o'tib ketishga harakat qiladi. Aylanib o'tishning bu turi maydonning istalgan joyida va turlichay o'yin vaziyatida muvaffaqiyat bilan qo'llanilishi mumkin.

4. To‘pni to‘xtatib turib fint qilish. To‘pi bor o‘yinchi izmaziz kelayotgan himoyachi etib olayotganini ko‘rib, tezligini bir oz kamaytiradi. Orada 1,5-2 m masofa qolganda, hujumchi to‘pni to‘xtatadi, keyin esa ilgarigi yo‘nalishda maksimal tezlikda harakatni davom ettiradi.

Aylanib o‘tishdan maqsad uni namoyish qilishdangina iborat bo‘lmasligi kerak. Aylanib o‘tish hamma vaqt zarba berish, to‘p uzatish, maydonning ayrim qismida miqdor ustunligi hosil qilish va hokazolar uchun qulay sharoit yaratish imkonini beradigan vosita bo‘lib qolishi lozim.

Aylanib o‘tishni raqiblar jarima maydoni va unga yaqin joylarda ishlatgan ma’qul. Maydonning o‘rta qismida va, ayniqsa, o‘z jarima maydonida aylanib o‘tishni kamroq qo‘llash tavsiya etiladi, chunki bunda oldirib qo‘yilgan har qanday to‘p o‘z darvozasi uchun xavfli bo‘lib qoladi.

Darvozani mo‘ljallab zarba berish. Bu barcha hujum harakatlarini amalga oshirishning eng asosiy vositasi hisoblanadi. Ana shu «pirovard» harakatlar taktik jihat-dan mohirona ishlatilmasa, jamoaning yutib chiqishga qaratilgan barcha urinishlari zoye ketadi.

Darvozani mo‘ljallab zarba berish taktikasining umumiylasoslari:

1. Zarba berish oldidan darvozabonning pozitsiyasini mohirona baholash va uning yaxshi ko‘rgan harakatlarini bilish (u to‘pni qaysi tomondan iladi – chapdanmi yoki o‘ngdan, erdanmi yoki havodan – yaxshi bilish) kerak.

2. Konkret o‘yin vaziyatiga qarab zarba berish usulini to‘g‘ri tanlash lozim.

3. Bajarish xarakteri (kuchliligi, aniqligi, buramaligi, pastlatilganligi va hokazo) jihatidan aynan Shu vaziyatda qulay bo‘lgan zarbadan foydalanish zarur.

4. Zarba darvozabon uchun iloji boricha kutilmagan bo‘lishi (zarba tayyorgarliksiz, oldindan moslab olmay, darvozaning ilib olish eng qiyin joyi tomon berilishi) darkor.

5. Darvozani zabit etish uchun qulayroq pozitsiyada turgan sherikka to‘p oshirib bergen ma’qul.

6. O‘yinchi turli usullarda zarba berishni bilishi kerak. Darvozani mo‘ljallab kalla zarba berishni bilish nihoyatda muhim, chunki to‘p havolatib uzatilganda hujumni yakunlash uchun bu juda qo‘l keladi.

To‘p uzatish. To‘pni uzatish ikki o‘yinchining biri ikkinchisiga to‘p yo‘naltirayotgandagi o‘zaro hamkorligi bo‘lib, buni futboldagi individual va guruh harakatlari o‘rtasidagi oraliq zveno desa bo‘ladi. Kimga, qachon va qanaqa qilib to‘p uzatib berish masalasini hal qilayotgan, Shuningdek, bu maqsadni amalga oshirayotgan futbolchi individual mahoratini namoyish qiladi. Ayni vaqtda to‘p uzatish ikki-uch sportchining birgalikdagi harakatlarini amalga oshirish vositasi hisoblanadi.

Guruh taktikasi.

Futbol matchi davomida yuzaga keladigan taktik vazifalarning ko‘pchiligi kombinatsiyalar vositasida hal etiladi. Kombinatsiya – bu muayyan taktik vazifani hal etayotgan ikki yoki bir necha o‘yinchining harakatlari bo‘lib, butuno‘yin kombinatsiyalar va unga qarshi harakatlar zanjiridan iborat. Bunda kombinatsiyalar oldindan trenirovkalar vaqtida tayyorlab qo‘yilgan va tayyorlab qo‘yilmagan, ya’ni matchning o‘zi davomida yuzaga kelgan bo‘ladi.

Har bir jamoa o‘yining muayyan paytlarida qandaydir bir vazifani birgalikda hal qiladigan zvenolardan, ya’ni taktik birlıklardan iborat. Mutlaqo ravshanki, kombinatsiya qatnashchilarining hammasi bir-biriga mos harakat qilsalargina muvaffaqiyat qozonsa bo‘ladi. Ana Shuning uchun ham muayyan kombinatsiya tanlash va amalga oshirishda bir-birini tuShunish yoki ba’zan aytilishicha, «sheriklik hissi» alohida ahamiyatga ega bo‘ladi. O‘yinni bir xilda tuShunadigan sportchilargina qo‘yilgan vazifani yagona rejada hal eta olishlari va kerakli kombinatsiya tanlab, uni muvaffaqiyatli amalga oshira olishlari mumkin.

Kombinatsiyalarning ikkita asosiy turi bor, deb hisoblanadi: standart holatlardagi kombinatsiyalar va o‘yin epizodi davomidagi kombinatsiyalar.

Tezkor hujum.

Tezkor hujum komanda hujum harakatlarining eng samarali usuli hisoblanadi. Buning mohiyati Shundan iboratki, unda bitta-uchta uzatishda o‘yinchilardan birini darvozani zabit etish uchun qulay pozitsiyaga chiqaradigan hujum yoki javob hujumi uyushtiriladi. Hujum – bu komandaning raqib darvozasini zabit etishga qaratilgan harakatlarini uyushtirish.

Tez hujumning afzalligi Shundaki, bunda mudofaadagi kuchlarini qayta uyushtirib olishga raqiblarning vaqt bo‘lmaydi. Hujumdagilarning hamma harakatlari kutilmaganlik elementlariga boy bo‘lib, yuqori tezlikda bajariladi. O‘yinchilar maydonda ko‘p manyovr qiladilar va to‘pni uzatish bilan eng qisqa vaqt ichida sheriklaridan birini zarba berish pozitsiyasiga chiqarish imkoniyatini yaratadilar.

Bob bo‘yicha savollar

1. Taktika deganda nimani tushunamiz va uning qanday turlari bor?
2. Himoya taktikasi nima?
3. Himoya taktika nechta guruhga bo‘linadi?
4. Pressing nima va uni amalga oshirish shakllarini sanab bering?
5. Qarshi hujum nima?
6. Tadrijiy hujum deganda nimani tushunamiz?

IV BOB. FUTBOLCHILARNING MAYDONDAGI TAKTIK HARAKATLARI

4.1. Darvozabonlarning maydondagi taktik harakatlari

Darvozabonning tayyorlik darajasi muvaffaqiyatli o‘yini uchun juda muhimdir. Darvozabonning holati unga barqarorlikni, to‘pga nisbatan "portlovchi" harakatlar uchun qulay tana holatini beradi.

Tayyorlik holatida darvozabon tizzalarini ozgina egib, tanasini oldinga ozgina egib oladi. Oyoqlari taxminan o‘rtacha kenglikda joylashgan. Qo‘llar tirsaklarga ozgina egilgan, bo‘sashgan. Qo‘llar kestirib, old tomonda, darvozabon tanasiga qaragan. Darvozabon xuddi yig‘ilgandek, darhol harakat boshlashga, sakrashga tayyor. To‘p futbol maydoni markazidan yaqinlashganda U chuqur nafas olib, darvoza tomon yurib, bo‘sashib va Shu bilan birga raqibning harakatlarini, to‘pning joylaShuvi uchun yurishni boshlaydi. Agar hujum yana takrorlansa — darvozabon bor e’tiborini yig‘ib u yana tayyor pozitsiyani egalladi.

Darvozabon tomon aylanatirib yo‘naltirilgan qabul qilish. Darvozabon har doim erga dumalab tushayotgan to‘pni qabul qilib oladi. To‘p orasidan o‘tib ketmasligi uchun oyoqlarini yopish kerak. Ushbu holatda oyoqlar qo‘llarni mahkamlaydi. Darvozabon tezda iloji boricha pastroq egilib, qo‘llarni pastga tushirib, barmoqlari bir-biridan ozgina ajralib turadi. Ayni paytda to‘p barmoqlarga bir-biridan tegib turganda, darvozabon to‘pni pastdan yuqoriga ko‘tarishi kerak, qo‘llari esa tirsaklariga egilib, to‘pni qorniga tortishi kerak. Darvozabonning nigohi oldinga yo‘naltirilgan. To‘pni olib, darvozabon u bilan raqibdan chiqib ketadi, so‘ngra to‘pni ochiq sherigiga yuboradi.

Darvozabondan uzoqlashayotgan to‘pni qabul qilish. Darvozabondan bir qadam narida dumalab kelayotgan to‘p xuddi yaqinlashayotgan to‘pni qabul qilish kabi qabul qiladi , faqat bitta farq Shuki, darvozabon to‘pga egilib, bir vaqtning o‘zida yon tomonga qadam tashlaydi.

Agar to‘p tez dumalab tushmasa, lekin bir qadamdan ko‘proq masofada bo‘lsa, uni yon tomonga ikki qadam, o‘zaro harakat va boshqa qadam qo‘yib (har doim to‘pga qaragan holda) olish kerak. Yengil zarba bilan darvoza tomon

yo‘naltirilgan to‘p, iloji bo‘lsa, tushishdan saqlanib, xuddi Shu ketma-ketlikda olinishi kerak.

To‘pni tizza yoki sonlar darajasida qabul qilish. Tizza yoki son darajasida uchayotgan to‘pni qabul qilishda darvozabon oyoqlarini yopishi va tanani burishi kerak. Tirsaklarga bukilgan qo‘llar tushiriladi, barmoqlarini bir-biridan ajratib turadigan kaftlar to‘pga qaratiladi, tirsaklar biroz ajralib turadi. Qo‘llarning bu holati kuchli uchayotgan to‘pni bo‘ysundirishga imkon beradi. Qorin balandligida to‘pni qabul qilish. Qorin darajasida uchayotgan to‘pni qabul qilishda siz oyoqlaringizni yopishingiz, tanangizni burishingiz, qo‘llaringizni tirsaklaringizda bukishingiz va kaftlaringizni barmoqlaringiz bilan to‘pga yo‘naltirishingiz kerak. To‘p qoringa tegsa, to‘p uchish kuchiga qarab qo‘llar uni ko‘taradi yoki ushlaydi. To‘p darvozaga kuchli uchib kirganda, darvozabon oyoqlarini yopadi, tezda tanasini oldinga egib, qo‘llarini tirsaklariga bukadi va qoringa tegib turgan paytda to‘pni barmoqlari bilan bir-biridan ajratib oladi.

To‘pni ko‘krak darajasida yo‘naltirilganda qabul qilish. Zarba kuchiga qarab kuchiga qarab, ko‘krak darajasida uchayotgan to‘pni qabul qilishning turli usullari mavjud.

Masalan, yuqoridan uzatmalarda, darvozabon to‘pga qaragan holda, yuqoriga qarab sakraydi, Shunda to‘p qabul qilinganda, bel darajasida bo‘ladi va to‘pga tegib turgan paytda qo‘llarini bilan o‘rab oladi. Yaqin masofadan kutilmagan zarba va kuchli uchayotgan to‘p bo‘lsa, darvozabon sakrashga ulgurmaganida, u o‘z qo‘li bilan ushlaydi.



1-rasm.

Dunyoning eng kuchli darvozabonlari L.Yashin, I.Kasiliyas, M.Noyer



2-rasm.

“Atletiko” (Madrid) jamoasi darvozaboni Yan Oblak

Bu yerda bitta o‘ziga xos xususiyat bor: to‘pda ikkinchi to‘siq bo‘lmaydi, masalan, to‘p erdan sapchiganda yoki qorin yoki ko‘krak darajasida uchib ketganda. Shuning uchun to‘pning boshdan yuqoriga uchishini qabul qilish yanada ishonchliligini talab qiladi.

To‘pni sakrab o‘tirmasdan qabul qilishda darvozabon qo‘llarini yuqoriga ko‘taradi va kaftlarini barmoqlari bilan bir-biridan uzoqda, to‘pga qaragan holda, bosh barmoqlar deyarli tegib turadi, qo‘llar taranglashadi; Ayni holatda to‘p to‘xtaydi, kaft va

barmoqlar uni ushlab, yumshoq harakat bilan ko‘kragiga uzatadi. To‘pni sakrash bilan qabul qilishda qo‘llarni muddatidan oldin ko‘tarish tavsiya etilmaydi, chunki bu sakrashning o‘zi zaiflashadi. To‘p yaqinlashayotgan paytda qo‘llar itarishga yordam berganday tuyuladi va Shu bilan birga to‘p tomon yo‘nalishda cho‘ziladi, barmoqlarini bir-biridan ajratib turgan kaftlar unga buriladi; to‘p bilan aloqa qilish vaqtida, kaft va barmoqlar uni qisib, ko‘kragiga uzatadi.

Darvozabonning yiqilgan holatda raqibning oyoqlariga tashlangan holatda chiqishi eng qiyin usullardan biri bo‘lib, u o‘z vaqtida bajarilishi kerak. Tajriba Shuni ko‘rsatadiki, darvozadan chiqish to‘p bilan yugurayotgan o‘yinchi uni o‘zidan 1-1,5 m uzoqlikda, ba’zan esa ko‘proq qo‘yib yuborgan paytda amalgalashirilishi kerak. Raqibning to‘p bilan yugurishini diqqat bilan kuzatib borish va to‘p hujumchidan eng katta masofada turgan vaqtda darvozani tark etish kerak.

O‘yinchining to‘p bilan harakati va darvozabonning chiqishi raqobat turiga aylanadi. Bunday holatda, darvozabon to‘pga egalik qiluvchi o‘yinchining qiyin ahvolda ekanligini bilishi kerak, chunki u o‘z e’tiborini ham to‘pni dribblingga, ham uni ta’qib qilayotgan himoyachining harakatlariga, va nihoyat, darvozabonga taqsimlashi kerak. Ba’zan darvozabon qo‘llarini uzatib raqibning oyog‘iga tashlaydi.

Tananing va qo‘llarning bu holati hujumchiga kichik maydonda yotgan darvozabonni aylanib o‘tib, gol urish imkoniyatini beradi.

To‘pni bir musht bilan sakrab urib yuborish. U havoda raqib bilan kurashda ishlatiladi (ba’zida to‘pni musht bilan emas, balki voleybol zARBASIDA bo‘lgani kabi kaft bilan urishadi). Ushbu uslub har doim ham ishonchli emas, chunki agar raqib darvozabonga bosim o‘tkazsa, ikkinchisi to‘pdan orqaga qaytarilishi mumkin va hatto o‘tkazib yuborishi ham mumkin.

Shu sababli darvozabonlar ushbu uslubdan foydalangan holda o‘z o‘yinlarida xato qilishlari odatiy holdir.

To‘pni bitta musht bilan sakrab urib yuborish. Ushbu usul jarima maydonchasida to‘pni yuqorida uzatmalar va qanotlardan uzatmalarni bartaraf etishning samarali usuli bo‘lib to‘p darvozaning eng yuqori nuqtasida bir musht bilan tez va aniqroq uriladi. Tirsak bo‘g‘imida qo‘lning kengayishi tufayli zarba yelkadan amalga oshiriladi.

4.2. Himoyachilarning taktik harakatlari

Jamoaning himoyaviy o‘yining asosiy maqsadi raqibni o‘yin maydonidagi ustunlik va darvozaga yaqin masofadan yo‘naltirilgan zarbalarini amalga oshirish qobiliyatidan mahrum qilish demakdir. Buning uchun raqibni qattiq qo‘riqlashni ta’minlash, uning o‘zaro aloqalarini buzish va to‘pni boshqarishni imkon qadar tezroq tiklash kerak. Ishonchli mudofaa hujum harakatlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi: qanchalik ishonchli bo‘lsa, to‘pni qabul qilish va qarshi hujumga o‘tish imkoniyatlari Shuncha ko‘p bo‘ladi.

Futbolda ko‘pincha faol himoya qilish usuli qo‘llaniladi. To‘pni yo‘qotib qo‘ygan barcha o‘yinchilar darhol himoya vazifalariga o‘tishadi, raqib tomonidan hujum boshida to‘pni egallab olishga yoki uning hujumini rivojlanishini kechiktirishga intilishadi. Taktik mudofaa vazifalari individual, guruh va jamoaviy harakatlar yordamida hal etiladi. Himoyadagi o‘yin tizimlari himoyadagi jamoaviy harakatlar muayyan taktik o‘yin tizimlari yordamida tashkil etiladi. Shaxsiy, zonali va birlashgan himoya tizimlaridan foydalaniladi.

Ushbu usullarning har biri turli xil qarshi harakat tamoyillariga va harakatlarni tashkil qilishning bir necha variantlariga ega. Bu tafovutlar raqib bilan kurash olib borilayotgan maydonga va himoyachilarning faolligiga bog‘liq.

Bunga qarab tizimlarning ikkita asosiy variantini ajratish mumkin. Diqqatli himoya.

U darvoza yaqinida ishlataladi. Himoyachilar to‘pga egalik qilayotgan o‘yinchini va to‘pni izlayotgan boshqa barcha o‘yinchilarni diqqat bilan kuzatib boradilar.

Tarqoq himoya. Ushbu usul o‘z va raqibning maydonlarining yarmida qo‘llaniladi. To‘pga egalik qiluvchi jamoaning to‘p uzatishi mumkin bo‘lgan o‘yinchilarni yopishga qaratilgan. Shaxsiy himoya. Ushbu tizimning mohiyati Shundan iboratki, himoyalanayotgan jamoaning har bir o‘yinchisi raqib jamoaning ma’lum bir o‘yinchisiga qarshilik ko‘rsatadi va uning harakatlarini, u to‘p bilan o‘ynashidan yoki yo‘qligidan qat’iy nazar nazoratga oladi. Zamonaviy futbolda shaxsiy kuchli o‘yinchilarga qarshi keng foydalaniladi.

Zonali himoya. Himoyani tashkil qilishning ushbu usuli bilan maydonning o‘z yarmi ma’lum zonalarga bo‘linadi, ularning har birini himoyachi egallaydi. Himoyani bunday tashkil etish bilan barcha e’tibor ma’lum bir o‘yinchiga emas, balki to‘pga qaratilgan. Himoyachilarining harakatlari hujumchilarni o‘yin maydonidagi ustunlikdan mahrum etishga, ayniqsa jarima maydonchasiga yaqinlashishga qaratilgan. Muayyan zonalarda harakat qilib, himoyachilar ushbu zonada paydo bo‘lgan har qanday raqib o‘yinchisiga qarshi chiqadilar.

Zonali mudofaaning afzallikkari bu o‘zaro ta’sir o‘tkazish va raqib hujumining asosiy yo‘nalishi bo‘yicha son ustunligini yaratish uchun eng yaxshi sharoit qilish, himoyadan hujumga tez o‘tish. Zonani himoya qilishning zaif tomonlari: ma’lum zonalarda raqibning son jihatidan ustunligi, hujumni yakunlash uchun himoyasiz joylar mavjudligi, raqib tomonidan to‘pni erkin qabul qilish va uni to‘p bilan oldinga siljitim imkoniyati, a raqib tomonidan tezkor yutuq, kuchli raqiblarning harakatlari uchun shaxsiy javobgarlikning yo‘qligidan. Zonalarni himoya qilish tizimi, asosan sekin hujum qiladigan jamoalarga qarshi muvaffaqiyatli qo‘llanishi mumkin, agarida raqibda dribling va tugatish ishlarida yuqori individual mahoratga ega tezkor o‘yinchilar bo‘lmasa.

Birlashgan himoya. Himoyani tashkil qilishning bu usuli eng keng tarqalgan. Uning mohiyati bir vaqtning o‘zida shaxsiy va

zonalarni himoya qilish printsiplaridan foydalanishda yotadi: ba'zi jamoalar o'yinchilari ma'lum raqiblar uchun shaxsan javobgar, boshqalari belgilangan zonalarda harakat qilishadi.

Vaziyatga qarab, futbolchilar shaxsiy ushlab turishdan zonada o'ynashga o'tishlari mumkin va aksincha. U yoki bu tamoyilga binoan harakat qiladigan o'yinchilar soni himoyachi jamoaning vazifalariga bog'liq. Birlashtirilgan himoyaning bir nechta variantlari mavjud: 1. Uch himoyachi uchta hujumchini qo'riqlaydi, to'rtinchisi — "erkin" himoyachi sheriklarining orqasida zonada o'ynaydi va ularni himoya panjarasi bilan ta'minlaydi.

Ushbu himoyaviy o'yin hujumchilarni bo'sh o'yin maydonidan mahrum qiladi va qanotlardan yoki maydon markazidan jarima maydonchaning uzoq uzatmalar bilan ustunlik yaratadi.

1. Bu raqib hujumlari samaradorligini ancha pasaytiradi va futbolchilarning qanotdagi harakatlarini murakkablashtiradi.

2. Bir chiziqda joylashgan ikkita markaziy himoyachilar ular uchun ajratilgan zonalarda harakat qilishadi va ikkala tashqi qanot himoyachilarining shaxsiy vasiyligini amalga oshiradi. Ushbu tizim yordamida chap markaziy orqa chap va o'ng markazning orqa va orqa tomonlari uchun zaxira nusxasini taqdim etadi

3. O'rta zonada o'ynaganda raqibga harakat erkinligi beriladi va o'yin maydoni beriladi. Ular jarima maydonchasiga yaqinlashganda, himoyalanayotgan jamoaning barcha o'yinchilari zona usulidan hujumchilarning shaxsiy qattiq qo'riqlashiga o'tishadi.

4. Himoyachilar va yarim himoyachilar to'pni eng yaqin bo'lgan hujumchilarni shaxsan "ushlab turishadi" va to'pdan uzoqroq bo'lgan futbolchilar tegishli zonalarni qo'riqlashadi. Birlashtirilgan himoya tizimining kuchi raqibning eng kuchli o'yinchilarining qattiq tarbiyasi va hujumning asosiy yo'nalishi bo'yicha son ustunligini yaratish bilan bog'liq.

Shu sababli, birlashtirilgan himoya eng katta kuch bilan ajralib turadi va ularni yengish uchun yanada murakkab hujum taktikalari talab etiladi. Ikki, uch va undan ortiq himoyachilarning

harakatlari to‘p bilan o‘yinchiga qarshi kurashayotgan shericiga yordam berishga qaratilgan. Guruh taktik harakatlariga quyidagilar kiradi: to‘pni to‘sish, almashtirish va guruh bilan muomala.

Hujum paytida himoyachilar son jihatdan ustun bo‘lgan raqibga qarshi harakat qilishlari kerak. Bu raqib to‘pni olib qo‘yib, tezda qarshi hujumni boshlaganida va himoyachilar o‘z pozitsiyalariga qaytolmayotganlarida sodir bo‘ladi.



3-rasm.

“Pahtakor” jamoasi himoyachisi Xojiakbar Alijanov

Bunday holda, to‘pga egalik qilgan o‘yinchiga unga yaqin bo‘lgan himoyachilardan biri hujum qiladi, qolganlar Shunday holatda bo‘ladiki, uzatmani ushlab qolish yoki to‘pni qabul qilishni qiyinlashtirishi mumkin. Raqamli ozchilik bilan, eng samarali himoyachilarning diagonalda joylashishi va qanotda ochiqchasiga hujumchilardan biri bor.

O‘yinchilar tengligi bo‘lgan taqdirda, himoyachilar o‘zaro aloqada bo‘lib, doimo xedjirovka qilishadi, darvozaga chiqadigan o‘yinchiga o‘tishadi va to‘pni doimiy ravishda olib qo‘yishadi. Himoya tarmog‘i raqibni qattiq himoya qilishni osonlashtiradi. Uning orqa markaziy himoyasini ta’minlaydi. Boshqa yo‘nalishlarda bu rolni odatda eng yaqin sherik bajaradi.

Xavfsizlik tarmog‘ining mohiyati — to‘p bilan o‘yinchi maydonida qisqa muddatli son ustunligini yaratish. To‘p taShuvchisi hujumi paytida hujumdagи sherigiga eng yaqin bo‘lgan himoyachi uzatmaning mumkin bo‘lgan yo‘nalishini to‘sib qo‘yadigan, zarba beradigan yoki chalg‘itadigan pozitsiyani egallaydi. O‘yin davomida nafaqat sheriklarni, balki ma’lum, eng xavfli zonani ham ta’minalash kerak.

Ushbu ko‘nikma hujumchiga qarshi turish joyi va usulini oqilona tanlashga asoslangan. To‘g‘ri pozitsiyani tanlash uchun himoyachi raqib, sheriklar va to‘p harakatlarini diqqat bilan kuzatib borishi kerak.

O‘zining pozitsiyasini doimiy ravishda o‘zgartirib, u tajovuzkordan o‘yin maydonini qisqartirishga, g‘alaba qozonishga, eng xavfli hujum zonasini to‘sib qo‘yishga, doimiy ravishda palataga homiylik qilishga va Shu bilan birga shergini sug‘urtalashga, agar kerak bo‘lsa, unga yordam berishga intiladi. Shaxsiy harakatlarning xarakteri uning jamoasi va raqib jamoasining o‘yin tizimiga, himoyachi oldiga qo‘yilgan aniq vazifaga va raqibning individual taktikasiga bog‘liq.

Shaxsiy taktik harakatlar joyni, fintlarini, tutib olish usullarini, to‘pni nokaut qilish va olishning oqilona tanlovi bilan amalga oshiriladi. To‘p bilan o‘yinchiga qarshi harakatlar. Bunday o‘yinchiga qarshi kurashda himoyachining asosiy vazifasi — bu darvoza tomon harakatga qarshi turish va darvozaga zarba berish. Muvaffaqiyatli harakatlar uchun himoyachi o‘zini yon tomonga qaytarishga va darvozaga burchak ostida harakat qilishni imkonsiz qilib qo‘yishga urinib, o‘zini qo‘riqchi va uning maqsadi o‘rtasida joylashtirishi kerak. Himoyachi, hujumchining darvozaga hujum qilish uchun xavfli zonaga o‘tishiga yo‘l qo‘ymaydigan va to‘pni hujumchidan tortib olinadigan zonaga yo‘l ochadigan pozitsiyani egallashi kerak.

To‘pni hujumchi dribbling qilganda, himoyachi uning oldida harakat qilishi va to‘p bilan muomala qilish uchun qulay lahzani izlashi kerak.

Raqib bir lahzada to‘pni boshqarish huquqini yo‘qotganda hujum qilish yaxshiroqdir. Fintlarni yaxshi biladigan o‘yinchiga qarshi siz ayniqsa ehtiyot bo‘lishingiz kerak.

Raqibning soxta harakatlariga tushib qolmaslik uchun siz to‘pni diqqat bilan kuzatib borishingiz kerak. O‘z navbatida, himoyachi va hujumchi o‘rtasidagi kurashning natijasi ko‘pincha himoyachi ishlatgan hiyla-nayrangga bog‘liq Himoyachining hujumchiga qarshi eng qiyin harakatlari darvoza yaqinida.

Ushbu zonada himoyachi raqibga gol urishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun unga yaqin o‘ynashi kerak. To‘pga egalik qilmaydigan o‘yinchiga qarshi harakatlar. Himoyachi uni o‘yin maydonidan mahrum qilishga intiladi, to‘pni joylashtirish va qabul qilishni qiyinlashtiradi. Buning uchun u raqib va to‘p o‘rtasida uning harakat erkinligiga xalaqit beradigan va hujumchidan oldin to‘pga etib borishiga imkon beradigan pozitsiyani tanlaydi.

Ushbu harakatlarning muvaffaqiyati sizning atrofingiz va to‘pingizni doimo kuzatib borish qobiliyatiga bog‘liq. Vaziyatning o‘zgarishi raqib va to‘pning joylaShuvi bilan belgilanadi. Raqib darvoza va to‘pga qanchalik yaqin bo‘lsa, uni Shunchalik diqqat bilan va mahkamroq "ushlab turish" kerak. Bo‘lim darvozadan uzoqroq joyda joylashganida va to‘p undan ancha uzoqlashganda, himoyachi har qanday uzatmani ushlab qolish uchun o‘ynashi kerak. Himoya futbolchilarining taktik vazifalari Darvozabonning o‘yin taktikasi.

Zamonaviy darvozabon o‘yining barcha texnik usullarini puxta egallashi, ehtiyotkorlik bilan joy tanlashi, raqibning kombinatsiyalarini puchga chiqarish uchun tez va o‘z vaqtida to‘pga yaqin joyda ham, darvozabon hududidan tashqarida vaziyatni baholashi kerak. va xavfli yutuqlarni yo‘q qilish. Buning uchun darvozabon va himoyachilar o‘rtasidagi chuqur tuShuncha va yaxshi o‘zaro munosabatlar, Shuningdek, himoya chizig‘ida futbolchilarni boshqarish qobiliyati talab etiladi.

Darvozabon nafaqat darvoza chizig‘ida, balki butun jarima maydonchasi bo‘ylab o‘ynashi kerak.

Bu jamoaning himoya chizig‘iga yordam beradi. Darvozabon nafaqat darvozani himoya qiladi, balki hujumni tashkil etishda ham faol ishtirok etadi.

U barcha to‘plarni yozuv bilan taqillatadi yoki sherigiga qo‘l bilan tashlaydi. Qanotda harakat qilish taktikasi. Zaxira himoyachilarining asosiy vazifasi — haddan tashqari hujumchilar o‘yinini zararsizlantirish, sheriklarni sug‘urtalash va hujumda faol ishtirok etish.

Himoyachining o‘yinlari faqat uning palatasining qattiq qopqog‘iga asoslanishi mumkin emas. Undan nafaqat shaxsiy qo‘riqlash prinsipiga ko‘ra, balki zonada ham o‘ynash imkoniyati talab qilinadi. Shunday qilib, qanot himoyachisi markazga o‘tsa, himoyachi ko‘pincha erkin harakat qilishiga yo‘l qo‘ymaslik va boshqa zonada son ustunligini paydo bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun orqasidan harakat qiladi. Ushbu mobil mudofaa taktikasi sizga darvozani muvaffaqiyatli himoya qilishga imkon beradi. Vinger nafaqat qanotni mahkam yopibgina qolmasdan, balki sheriklariga ham yordam berishi kerak.

Masalan, boshqa qanot bilan raqibga hujum qilganda, o‘ng qanot himoyachisi o‘z o‘yinchisini yaqin tutmaydi, balki o‘ng markaziy himoyachining zonasiga o‘tadi. U yon tomonga va o‘ng markaziy himoyachining orqasida biroz pozitsiyani egallab, unga to‘pni markazga uzatishda va darvoza oldida xavfli zonada kurashishda yordam beradi. Uning qanotidan burchak zarbasi bo‘lgan taqdirda, qanot himoyachisi darvozabonni himoya qilib, darvozaning yaqin burchagida joylashgan Qanotning orqa tomonlari nafaqat mudofaa funksiyalaridan ko‘proq narsani bajaradi. Shuningdek, ular jamoaning hujum harakatlarini tashkilotchilari va ularning ishtirokchilari.

To‘pni raqibdan olib qo‘ygan yoki sherigidan olgan holda, himoyachi uni yarim himoyachiga, qanot hujumchisiga yoki markaziy hujumchiga aniq etkazishi kerak.

Qanot orqalari to‘pni urishdan saqlanishlari kerak. Ba’zida, ular darvozaga zudlik bilan tahdidni bartaraf etish uchun to‘pni darvozadan uzoqroq joyda, teginish chizig‘i yoki darvoza chizig‘i ustidan tepishga majbur bo‘lishadi. Markaziy himoyachilarning

taktikasi. Ikkala markaziy himoyachilar mudofaani tashkil qilishning asosiy figuralari. Ular hujumning asosiy yo‘nalishi bo‘yicha darvozaga yaqinlashishni qamrab oladilar. Markaziy himoyachilarning o‘yin xarakteri hujumchilar va ayniqsa markaziy o‘yin taktikasiga bog‘liq.

Shuning uchun ikkala markaziy himoyachining pozitsion o‘yini noo‘rin. Mudofaa taktikasi bo‘yicha qo‘shma mashqlar Quyida ikkita himoyalanuvchi o‘yinchini tayyorlashga yordam beradigan mashqlar.

1-mashq ("Mushuk o‘yini" va uning variantlari).

Ma’lum bir maydonda (masalan, maydonning burchagida) 4x2 nisbatda ikkita teginish bilan o‘yin tashkil etiladi. Agar to‘p chiziqqa tegsa, bu muomala deb hisoblanadi. "Mushuklar" orasida eng uzunroq bo‘lganlarni almashtirish kerak. Bu to‘pni birgalikda sotib olishni ta’minalashning yagona usuli.

Variantlar:

a) agar bir nechta jamoalar o‘ynayotgan bo‘lsa, unda hushtakbozlikda oldindan belgilangan ikkita guruh almashtiriladi, ammo transferdan keyin to‘p eski joyda qoladi.

Almashish paytida "muShuklar" to‘g‘ridan-to‘g‘ri to‘pni olish imkoniyatiga ega. Bu holatda oxirgi kelgan o‘yinchi "mushuk" ga aylanadi. Bunday holda, qarshi hujum yanada muvaffaqiyatli bo‘lishi mumkin.

b) hushtak chalganda, agar o‘yin maydonning burchagida, jarima maydonchasi ichida bo‘lsa, to‘pni markaziy chiziqdan olib chiqib, orqaga qaytarish kerak.

Qolgan shartlar o‘zgarmaydi, shuning uchun yugurish paytida "mushuklarni tutish" kerak.

2-mashq (10-rasm).

Uning qiymati maydonning eng xavfli qismlarida o‘yinchilarning birgalikdagi harakatlarida. Shu bilan birga, himoyachilar uchun sun‘iy ravishda kamchilik yaratiladi. Yonida turgan mudofaa va hujumchilar bir-birlariga qarashadi va mudofaa safi orqasida oldinga uzatmani kutishmoqda. To‘pni berish bilan bir vaqtida, hujum va himoya o‘rtasidagi kurash boshlanadi.

3-mashq (11-chizma).

Hujumchilar va himoyachilar joylashgan jarima maydoni oldidagi maydon qismida ular to‘plarni osib qo‘yishadi va turli joylardan xizmat qilishadi. Hisob hujumchilar boshlari bilan uradigan gollarga to‘g‘ri keladi va agar himoyachilar to‘pni boshlari bilan uzatgandan so‘ng, raqibga etib kelmasligi uchun to‘pni bir-biriga besh marta uzatsa, "gol" hisoblanadi. Zamonaviy himoyachilar o‘yinining tizimini ishlab chiqish ko‘p va mehnat talab qiladi.

